



O'zbekistonda xotin-qizlarning
siyosiy hayotda ishtirok etishi va
yetakchilik qilishidagi to'siqlarni

BAZAVIY TADQIQ ETISH



2024-yil mart
Toshkent, O'zbekiston

O'zbekistonda xotin-qizlarning siyosiy hayotda ishtirok etishi va yetakchilik qilishidagi to'siqlarni bazaviy tadqiq etish

Mualliflar jamoasi: **Kamola Alieva**, yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Toshkent davlat yuridik universiteti "Konstitutsiyaviy huquq" kafedrasida dotsenti vazifasini bajaruvchi, **Bunyod Avliyokulov** (BMTTD), **Nigoraxon Madazimova** (BMTTD), **Javlon Boymat** (BMTTD).

Dizayn va vyorstka: *Aleksandra Povarich*

Manzil: Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (BMTTD)
O'zbekiston, Toshkent shahri, 100029, Taras Shevchenko ko'chasi, 4
Sayt: www.undp.org/uzbekistan
Tel.: (998 78) 120 34 50, (998 78) 120 61 67
Faks: (998 78) 120 34 85

Ushbu bazaviy tadqiqot xotin-qizlarning O'zbekiston siyosiy hayotida faol ishtirokini cheklaydigan asosiy to'siqlar va omillarni tahlil qilish maqsadida o'tkazildi. Tadqiqot Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "O'zbekiston Milliy gender strategiyasini amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash orqali tenglikka erishish" qo'shma loyihasining tashkiliy ko'magida o'tkazildi. Tadqiqot loyihasi ekspertlari Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi xodimlariga, shuningdek, siyosiy partiyalar vakillariga tadqiqotni o'tkazishda har tomonlama ko'maklashgani uchun samimiy minnatdorlik izhor etadi.

BMTTD turmush darajasini oshirishga, tengsizlikni kamaytirishga va inklyuziv jamiyatni yaratishga ko'maklashib, 170 ga yaqin mamlakat va hududlarda faoliyat olib boradi. Biz taraqqiyot strategiyalarini ishlab chiqishda, hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishda, institutsional salohiyatni oshirishda va rivojlanish natijalarini mustahkamlash maqsadida barqarorlikni kuchaytirishda hukumatlarga yordam beramiz. Ushbu hisobotda bayon etilgan fikr va xulosalar faqat mualliflarning fikrlarini aks ettiradi hamda BMTTDning rasmiy nuqtai nazari hisoblanmaydi.

Ushbu nashr Buyuk Britaniyaning O'zbekistondagi elchixonasining moliyaviy ko'magida tayyorlandi. Nashr materiallari elchixonaning rasmiy nuqtai nazarini aks ettirmaydi.

MUNDARIJA

KIRISH **6**

METODOLOGIYA **8**

I. QONUNCHILIK BAZASINI BAHOLASH **11**

II. SIYOSIY HAYOTDA XOTIN-QIZLAR ISHTIROKIGA TO'SIQLAR **19**

III. XULOSALAR VA TAVSIYALAR **34**

ILOVALAR **39**



REZUME

Ushbu tadqiqotda gender tenglik va barqaror rivojlanishga erishish uchun xotin-qizlarning siyosiy huquq hamda imkoniyatlarini kengaytirish muhimligiga urg'u beriladi. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqliligini ta'minlash bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarga qaramay, global miqyosda xotin-qizlarning siyosiy hayotdagi ishtiroki hali ham yetarli darajada emas. Xalqaro huquqiy baza, shu jumladan, xotin-qizlarning davlat boshqaruvida teng ishtirok etishi zarurligiga urg'u berilgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya tahlil qilinadi.

O'zbekistonda jamiyatning siyosiy irodasi va talablaridan kelib chiqib, xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tashabbuslar faol ilgari surilmoqda. Mamlakat Prezidenti ularning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi rolini oshirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlamoda. BMTning 2030-yilga qadar Barqaror rivojlanish maqsadlari nuqtai nazaridan gender tenglikka alohida e'tibor qaratilmoqda, bu esa qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida xotin-qizlar sonini oshirish bilan bevosita bog'liq. Kirish qismi muammolarni chuqur tahlil qilish va O'zbekiston siyosiy hayotida xotin-qizlarning mavqeini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish uchun asos bo'ldi.

O'zbekistonda xotin-qizlarning siyosatdagi ishtirokiga bag'ishlangan ushbu tadqiqot metodologiyasi asosan sifat usullariga asoslanadi. Ma'lumotlarni to'plashning asosiy usullari mamlakatning turli mintaqalaridagi ayol deputatlar ishtirokidagi fokus guruh muhokamalarini (FGM) o'z ichiga oladi, bu esa o'ziga xos fikr va tajribalarni to'plash imkonini beradi. Bundan tashqari, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan treninglar ishtirokchilaridan ham ma'lumotlar to'plandi, bu esa to'plangan materialning asoslangan va rang-barang bo'lishini ta'minladi.

Qo'shimcha ravishda ikkilamchi ma'lumotlar tahlil qilindi, shu jumladan amaldagi qonun hujjatlari va ilmiy ishlar o'rganildi, bu o'rganilayotgan mavzuni chuqurroq tushunish imkonini beradi. Tadqiqot ijtimoiy va iqtisodiy shart-sharoitlar xilma-xil bo'lgan O'zbekistonning beshta asosiy shahrini qamrab oldi. Bunday yondashuv muammoni har tomonlama tahlil qilib, asoslangan xulosa va tavsiyalarni shakllantirishga ko'maklashadi. Ishning barcha bosqichlarida axloqiy standartlarga qat'iy rioya qilindi, ular barcha tadqiqot ishtirokchilarining maxfiyligini kafolatlaydi va huquqlarini himoya qiladi.

Tadqiqotda O'zbekistonda siyosiy hayotda ishtirok etishga intilayotgan xotin-qizlar duch keladigan bir qancha asosiy to'siqlarga urg'u berildi. Ular uchta toifaga bo'lingan:

- ✦ Ijtimoiy-madaniy (stereotiplar, jamoatchilik fikri)
- ✦ Ijtimoiy-iqtisodiy (moliyaviy to'siqlar)
- ✦ Xavfsizlikni ta'minlash omillari (tazyiq va shilqimlik qilish, ta'qib qilish)



Chuqur ildiz otgan gender stereotiplarga ko'ra ayollar yetakchi bo'lishga va siyosiy rollarga erkaklarga qaraganda kamroq mos deb qaraladi, bu ularning saylovlar va davlat tuzilmalaridagi imkoniyatlarini keskin cheklaydi. Ish joyida va jamoat joylarida kamsitish hali ham muhim muammo bo'lib qolmoqda, gender rollar haqidagi an'anaviy qarashlarga ko'ra esa ayollar zimmasiga uy yumushlari va bolalarga qarash bilan bog'liq asosiy mas'uliyat yuklanadi, bu ularning siyosiy hayotda faol ishtirok etish imkoniyatini cheklaydi.

Bundan tashqari, xotin-qizlar siyosatda muvaffaqiyat qozonish uchun muhim bo'lgan saylov kampaniyasini moliyalashtirish va ta'lim resurslari kabi zarur resurslardan foydalanishda qiyinchilikka duch kelmoqda. Siyosiy partiyalar tomonidan qo'llab-quvvatlash cheklanganligi va hokimiyatning yuqori turuvchi organlarida ayollar sonining yetarli emasligi ham ularning siyosatdagi ishtiroki darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Bu to'siqlarni yengib o'tish uchun O'zbekiston siyosatida xotin-qizlarning teng imkoniyatlarini va adolatli ishtirokini ta'minlash maqsadida siyosiy madaniyat va qonunchilikni o'zgartirishga yo'naltirilgan muvofiqlashtirilgan sa'y-harakatlar talab qilinadi.

Tadqiqotning asosiy xulosalariga ko'ra O'zbekiston siyosatida xotin-qizlar duch kelayotgan jiddiy to'siqlar, jumladan, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy to'siqlar va xavfsizlik omillari bor. Shu munosabat bilan qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti, institutsional mexanizmlarni mustahkamlash va shart-sharoit yaratish, siyosiy partiyalarda xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, yetakchi ayollarni tayyorlash, ma'rifiy tashabbuslar va xabardorlikni oshirish bo'yicha kampaniyalar o'tkazish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi.

Qonunchilik sohasida Xalqaro mehnat tashkilotining (XMT) "Mehnat sohasida zo'raonlik va ta'qibga barham berish to'g'risida"gi 190-sonli Konvensiyasini ratifikatsiya qilish, gender kamsitishlarga qarshi choralarni kuchaytirish va siyosatda zo'raonlikning oldini olish bo'yicha profilaktika ishlarini olib borish tavsiya etiladi. Institutsional mexanizmlarni mustahkamlash uchun qulay mehnat sharoitlarini joriy etish, shikoyatlar berish mexanizmlarini ishlab chiqish va ayol deputatlarga yuridik yordam ko'rsatish taklif etilmoqda. Siyosiy partiyalarda gender tenglikni institutsionallashtirish, xotin-qizlar uchun kvotalar belgilash va xotin-qizlar qo'mitalarining haqiqiy ta'sirga ega bo'lishini ta'minlash tavsiya etiladi. O'quv dasturlari va mentorlik, shuningdek, erkak siyosatchilar va OAV vakillari uchun ma'rifiy tashabbuslar orqali yetakchi ayollarni tayyorlash muhim sanaladi. Jamiyatning gender tenglikdan xabardorligini oshirish va stereotiplarga chek qo'yishga qaratilgan kampaniyalar ham kengroq siyosiy muhitni yaratishda muhim ahamiyatga ega.



KIRISH



Xotin-qizlarning siyosiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish gender tenglikka erishish hamda inklyuziv va samarali boshqaruvni ta'minlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Biroq ayrim sohalarda yutuqlarga erishilganiga qaramay, butun dunyoda xotin-qizlar siyosiy rahbarlik lavozimlarida hali ham yetarlicha emas.

Xalqaro amaliyotda xotin-qizlarning siyosiy faolligini ta'minlash uchun mustahkam huquqiy asos yaratilgan. **Jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida (IHUD)**^[1] kamsitmaslik va siyosiy huquqlarni teng amalga oshirish prinsiplari, shu jumladan xotin-qizlar va erkaklarning o'z mamlakatini boshqarishda ishtirok etish huquqi mustahkamlangan. **Ayollarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi Konvensiyada (ASHK)**^[2] xotin-qizlarning o'z mamlakatini boshqarishda ishtirok etish va davlat xizmatlaridan foydalanish huquqi himoya qilinadi. **Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga (FSHXP)**^[3] ko'ra har bir fuqaro davlat ishlarida qatnashish, umumiy va teng saylov huquqi asosida ovoz berish va saylanish huquqiga, shuningdek, davlat xizmatlaridan teng foydalanish huquqiga ega. **Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiya (XKShBK)**^[4] xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy hayotda teng ishtirok etish huquqini, shu jumladan barcha saylovlarda va umumxalq referendumlarida ovoz berish huquqini, xalq tomonidan saylanadigan barcha organlarga saylanish va davlat siyosatini shakllantirish hamda amalga oshirishda ishtirok etish huquqini mustahkamlaydi, shuningdek, ishtirokchi-davlatlarga xotin-qizlar kamsitilmasdan ishtirok etishi va teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlash uchun tegishli choralar ko'rishni yuklaydi. **Pekin deklaratsiyasi va Harakatlar platformasi (BPfA)**^[5] xotin-qizlarning teng ishtirok etishi yo'lidagi to'siqlarni olib tashlashga chaqiradi. Ushbu hujjatda davlat organlari va qo'mitalari, davlat boshqaruvi organlari va sud tizimida gender mutanosiblikni ta'minlash maqsad qilib qo'yildi.

Xotin-qizlarning siyosiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, ularning davlat ishlarida ishtirok etish huquqi barqaror rivojlanishning muhim kafolatidir. Bu xotin-qizlarning davlat ishlarida, shu jumladan siyosiy qarorlar qabul qilishda to'liq va teng ishtirok etishi va soni yetarlicha bo'lishi gender tenglikka hamda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga ko'maklashadigan omillar va maqsadlar ekani bilan bog'liq. Xotin-qizlarning jamoat ishlarida ishtirok etish orqali jamiyat hayotiga qo'shadigan hissasi xilma-xil bo'lib, bu katta natijalarga olib keladi. Xotin-qizlarning siyosiy jarayonlardagi ishtiroki ularning holatini yaxshilaydi. Xotin-qizlarning qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtiroki davlat siyosati ko'proq butun jamiyat ehtiyojlari va tajribasini aks ettirishini ta'minlaydi. Xotin-qizlarning siyosiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga ustuvor ahamiyat berish hamda ularning jamiyat ishlarida ishtirok etish huquqlarini amalga oshirishni ta'minlash davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladi.

2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi kun tartibi^[6] gender tenglikka ustuvor ahamiyat beradi va xotin-qizlar huquqlarini hisobga oladi. Barqaror rivojlanishning 5-maqsadi "Gender tenglikka erishish va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish"ga, 16-BRM esa "inklyuziv institutlar"ga bag'ishlangan. 5-BRM

doirasida a'zo davlatlar bir nechta vazifani, shu jumladan "Siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida xotin-qizlarning to'liq va samarali ishtirokini va yetakchiligi uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash" 5.5-BRM vazifasini kelishib olgan. "Milliy parlamentlar va mahalliy hokimiyat organlaridagi xotin-qizlar egallagan o'rinlar ulushi" 5.5.1-BRM ko'rsatkichi ushbu maqsadga erishishdagi muvaffaqiyatni nazorat qiladi. Bu masala O'zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlagan edi: "Onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish, ayollarning turmush sharoitlarini hisobga olgan holda ish bilan ta'minlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi o'rni va nufuzini oshirish bo'yicha davlat siyosatini faol davom ettirishni biz o'zimizning eng muhim vazifamiz, deb bilamiz"^[7]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Hozirgi kunda har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo'lmog'i shart", deb ta'kidlagan edi^[8].

Shuningdek, **xotin-qizlarning siyosiy hayotda va qaror qabul qilish jarayonidagi ishtirokini oshirish O'zbekistonning jahon gender indekslaridagi o'rni va umuman jahon miqyosida mamlakatimizning obro'-e'tiborini oshirishda muhim omil** ekanini alohida ta'kidlash zarur. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Parlamentlararo ittifoqning "Siyosatdagi ayollar" reytingida dunyoning 190 ta milliy parlamenti orasida **47-o'rinni** egallab turganini ta'kidlash joiz ^[9].



METODOLOGIYA



TADQIQOTNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Davlat institutlari darajasida gender stereotiplar va patriarxal xurofotlarni bartaraf etish, mahalliy darajadan milliy darajagacha bo'lgan barcha darajalarda ushbu hodisalarga qarshi kurashish madaniyatini rivojlantirish, shuningdek, gender siyosatining amalga oshirilishini nazorat qilishga fuqarolik jamiyatini jalb qilish gender tenglikning mustahkam va samarali tizimini shakllantirishga ko'maklashishi mumkin degan nuqtai nazardan kelib chiqib, tadqiqot davomida xotin-qizlarning siyosatdagi ishtirokini tahlil qilishda «O'zgarishlar nazariyasi» qo'llaniladi. Bunday yondashuvda xotin-qizlar uchun siyosatda mavjud bo'lgan to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha faol sa'y-harakatlar xotin-qizlar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashda katta ijobiy o'zgarishlarga olib keladi va shu orqali yanada adolatli hamda inklyuziv siyosiy makonni yaratishga yordam beradi, deb taxmin qilinadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi gender stereotiplar va patriarxal yo'l-yo'riqlarning tub sabablarini tahlil qilish va aniqlash, xotin-qizlarning siyosiy huquqlari hamda imkoniyatlarini cheklaydigan muammo va to'siqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish va milliy gender tenglik tizimini mustahkamlash uchun samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqishdir.

Tadqiqotning vazifalari: xotin-qizlarning siyosiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirish yo'lidagi muammolar va to'siqlarni aniqlash uchun bazaviy baholashni o'tkazish, xotin-qizlarning siyosiy rahbar bo'lishdagi ishtiroki pastligi sabablarini aniqlash hamda mahalliy va milliy darajalardagi siyosiy jarayonlarda ularning ishtirok etishiga to'sqinlik qiladigan stereotiplarni aniqlash uchun ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, xotin-qizlar yetakchiligini rivojlantirish va ularning siyosiy rolini oshirish sohasidagi amaldagi qonunchilikni sifatli tadqiqot usullaridan foydalangan holda baholash, yetakchi ayollar va deputatlarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, siyosiy va ijtimoiy hayotning barcha darajalarida xotin-qizlarning to'liq ishtirok etishi va teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar bilan tahliliy sharh tayyorlash.

TADQIQOT KONSEPSIYASI

Ushbu tadqiqot konsepsiyasi quyidagi uchta asosiy ustuvorlikni o'z ichiga oladi, ularga ko'ra tadqiqotning asosiy savollarini tuzib chiqishning butun jarayoni shakllantirilgan:

1-ustuvorlik: Xotin-qizlarning siyosatdagi yetakchiligini tahlil qilish va to'siqlarni aniqlash. Bu ustuvorlik xotin-qizlarning rahbarlik lavozimlarida va siyosiy jarayonlarda ishtiroki pastligi sabablarini chuqurroq tushunish uchun ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishga qaratilgan. Xotin-qizlarning mahalliy va milliy siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga to'sqinlik qiladigan gender stereotiplarni aniqlashga alohida e'tibor qaratiladi.

2-ustuvorlik: Ayollar yetakchiligini qo'llab-quvvatlash uchun qonun hujjatlarini, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy tashabbuslarni baholash. Ushbu ustuvorlik doirasida amaldagi qonunchilikni ayollar yetakchiligini rivojlantirish va xotin-qizlarning siyosiy rolini oshirishga qo'shayotgan hissasini baholash maqsadida muhokamalar o'tkazish va tahlil qilish nazarda tutiladi. Fokus-guruhlar va so'rovlar kabi sifatli tadqiqot usullaridan foydalanish xotin-qizlarning siyosatda ishtirok etishga intilishini cheklaydigan stereotiplarni aniqlash, toifalash va miqdoriy baholashga yordam beradi.

3-ustuvorlik: Xotin-qizlarning siyosat va jamiyatdagi rolini kuchaytirish uchun tavsiyalar ishlab chiqish. Baholash natijalariga tayangan holda yetakchi ayollar va deputatlarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, siyosiy va ijtimoiy hayotning barcha darajalarida xotin-qizlarning to'liq ishtirokini va teng imkoniyatlarni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar keltirilgan tahliliy sharh tuziladi. Bu qonun hujjatlarini o'zgartirish, xotin-qizlar uchun qo'llab-quvvatlash va o'qitish dasturlarini rivojlantirish, shuningdek, siyosiy jarayonda gender tenglikni ta'minlash uchun javobgarlik va monitoring mexanizmlarini kuchaytirish bo'yicha takliflarni o'z ichiga oladi.

TADQIQOT MINTAQALARI

Sifatli tadqiqot hududlar markazlari bo'lgan, mamlakat bo'ylab teng taqsimlangan va har bir hududning tarixiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy xususiyatlarini ifodalaydigan quyidagi beshta asosiy shaharda o'tkazildi:

1. Poytaxt hududi – Toshkent shahri va Toshkent viloyati.
2. Farg'ona vodiysi – Farg'ona viloyati Farg'ona shahri.
3. Markaziy hudud – Samarqand viloyati Samarqand shahri.
4. Janubiy hudud – Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri.
5. Orolbo'yi mintaqasi – Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahri.

MA'LUMOTLARNI TO'PLASH USULLARI

Tadqiqot ma'lumotlarini to'plash uchun qo'shma metodologiyadan foydalanildi – fokus guruh muhokamalari (FGM) texnikasi qo'llanildi, ikkilamchi ma'lumotlar tahlil qilindi, manbalardan ma'lumot to'plandi, shuningdek, xalqaro tajriba o'rganildi. Fokus-guruhlar yuqoridagi shaharlarda o'tkazildi.

FGMda qatnashish uchun xalq deputatlari Kengashlaridagi ayol deputatlar taklif etildi (tadqiqot o'tkazilgan har bir hududda 10-14 kishi, jami 54 kishi). Fokus-guruh muhokamasi ishtirokchilarining tarkibi ish boshlanishidan oldin O'zbekiston Respublikasi Senati bilan kelishib olindi.



FOKUS GURUH MUHOKAMALARI						
	Toshkent shahri va Toshkent viloyati	Farg'ona	Samarqand	Qarshi	Nukus	JAMI
Ekspertlar	1 (14 ishtirokchi)	1 (10 ishtirokchi)	1 (10 ishtirokchi)	1 (10 ishtirokchi)	1 (10 ishtirokchi)	5 (54 ishtirokchi)
					HAMMASI BO'LIB:	54

1-jadval. FGMning mintaqalar va tadqiqotning maqsadli guruhlar bo'yicha taqsimlanishi

Shunday qilib, tadqiqot davomida 54 kishi ishtirokida beshta fokus-guruh muhokamalar o'tkazildi. Ushbu tadqiqotda treningning 32 ishtirokchisi ma'lumotlaridan, shuningdek, parlamentning 29 nafar ayol a'zosi o'rtasida o'tkazilgan onlayn-so'rov natijalaridan foydalanildi. Tadqiqotda qatnashgan respondentlarning umumiy soni 115 nafar ayolni tashkil etadi.

To'plangan sifatli ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda miqdoriy usullarni qo'llagan holda tadqiqot, ya'ni mamlakatimizning barcha hududlarida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi ayol deputatlari va Senatining ayol a'zolari o'rtasida onlayn-so'rov o'tkazildi.

Ma'lumotlar to'plash boshlanishidan oldin rus va o'zbek tillaridagi vositalar O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati vakillari va BMTTDning O'zbekistondagi vakolatxonasi vakillari bilan kelishib olindi. Savolnoma ushbu hujjatga ilovada keltirilgan.

TADQIQOT AXLOQI

Baholashda butun tadqiqot jarayonida maxfiylikni, xabardor bo'lgan holda rozilikni va ishtirokchilarning huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydigan axloqiy qo'llanmaga qat'iy rioya qilindi.

TADQIQOT ISHTIROKCHILARI

Tadqiqotda xalq deputatlari Kengashining 54 nafar ayol deputati, xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish bo'yicha treninglarning 32 nafar ishtirokchisi, shuningdek, onlayn-so'rovda qatnashgan parlamentning 29 nafar ayol a'zosi ishtirok etdi. Umumiy soni 115 ayol.

I. QONUNCHILIK BAZASINI BAHOLASH



a) Huquqiy asoslar

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19-moddasiga ko'ra barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Shuningdek Konstitutsiyaning 58-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi"^[10] degan qoida mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan prinsiplar mamlakat saylov qonunchiligida, shu jumladan, Saylov kodeksida va "O'zbekiston Respublikasining referendumini to'g'risida"gi Qonunda qo'llanilmoqda va rivojlantirilmoqda^[11]. Mazkur hujjatlarga ko'ra ovoz berish sanasigacha 18 yoshga to'lgan O'zbekistonning har qanday fuqarosi qonuniy tashkil etilgan saylovlarda va boshqa saylov jarayonlarida, shuningdek, referendumlarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bilan bog'liq harakatlarda ishtirok etish huquqiga ega. Qonunchilikda har bir fuqaro etnik kelib chiqishi, ijtimoiy va moddiy holati, irqi, millati, jinsi, ma'lumoti darajasi, tili, e'tiqodi, shuningdek kasbiy faoliyatidan qat'iy nazar saylovda va referendumda ishtirok etishda teng huquqlarga ega ekaniga urg'u berilgan. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda xotin-qizlarning saylov jarayonlarida ishtirok etishining huquqiy asoslari erkaklar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan bir xil bo'lib, istisnosiz barcha uchun teng imkoniyatlar ta'minlanadi.

2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida Gender tenglikka erishish strategiyasiga^[12] muvofiq davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- ✦ davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga tanlovlar asosida tayinlash mexanizmlarini joriy qilish orqali xotin-qizlarning rahbarlik lavozimlaridagi ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish;
- ✦ jamiyat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal qilishda va dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan qarorlarni qabul qilish hamda ularni amalga oshirishda xotin-qizlarning ishtirokini kuchaytirish;
- ✦ xotin-qizlarning xalqaro miqyosda davlat hamda o'zi faoliyat yuritayotgan davlat organi va tashkiloti nomidan vakil bo'lish hamda xalqaro tashkilotlar ishida ishtirok etish imkoniyatini kengaytirish;

- ♥ rahbarlik lavozimida faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar tomonidan aholini tashvishga solayotgan muammolarni bevosita hududga chiqib hal qilish amaliyotini kengaytirish;
- ♥ mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyotini kengaytirish orqali hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir ishlarda ularning faolligini oshirish;
- ♥ ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida davlat organlari va tashkilotlarida lavozimda ko'tarilish masalalari bo'yicha teng imkoniyatlarni yaratishga qaratilgan gender tenglikni ta'minlash mezonlarini ishlab chiqish;
- ♥ davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga rahbarlik lavozimlariga tavsiya etilgan xotin-qizlarning malakasini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida oshirish bo'yicha tizimli tadbirlarni belgilash;
- ♥ normativ-huquqiy hujjatlarni hamda ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizadan o'tkazish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yish;
- ♥ davlat organlari va tashkilotlarida tegishli lavozimlarda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar va erkaklar sonining nisbati to'g'risida ma'lumotlar yuritish;
- ♥ kompleks gender yondashuv asosida davlat organlari hamda tashkilotlarida gender auditlarni o'tkazishning huquqiy asoslarini mustahkamlash, uning tartib-tamoyillarini ishlab chiqish.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yilda qabul qilingan **"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"**gi Qonunida ham xotin-qizlar va erkaklar uchun siyosiy huquqlar tengligi mustahkamlab qo'yilgan. Qonunda **davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni** ta'minlash orqali turli jins vakillarining davlat boshqaruvida ishtirok etishi uchun shart-sharoit yaratish kafolatlanadi.

Ushbu Qonunning 18-moddasiga muvofiq **xotin-qizlar va erkaklar hokimiyat vakillik organlariga saylash va saylanishda teng huquqlarga ega**. Siyosiy partiyalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlari deputatligiga nomzodlar ko'rsatishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksida **ayollarning soni** bir mandatli saylov okruglari bo'yicha, shuningdek partiya ro'yxati asosida siyosiy partiyadan ko'rsatilgan **deputatlikka nomzodlar sonining kamida qirq foizini tashkil etishi** belgilab qo'yilgan. Bunda partiya ro'yxatidagi ketma-ketlikda kamida har besh nafar nomzodning ikki nafari ayol kishi bo'lishi lozim.^[13]

Gender kvotalarga kelsak, hozirgi vaqtda 130 dan ortiq mamlakat o'z milliy parlamentlarida gender kvotalarni joriy etganini ta'kidlash joiz^[14]. Ushbu mamlakatlarning tajribasi har bir tomondan har bir tumanda faqat bir nomzod taklif qilinadigan majoritar tizimlardan ko'ra saylovlar partiya nomzodlari ro'yxatlari bo'yicha o'tkaziladigan mutanosib

saylov tizimlari parlamentda ayollarni rag'batlantirishga ko'proq xizmat qilishini ko'rsatmoqda. Majoritar tizimlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham kvotalar eng yaxshi yechim sifatida qaralmaydi.

Gender kvotalar bilan bir qatorda **o'qitishga ustuvor ahamiyat beriladi, bu xotin-qizlarga "siyosiy lavozimlarda malakaliroq" bo'lish imkonini beradi.** Ta'limdan tashqari, xotin-qizlar mavqeini ko'tarishning eng yaxshi yo'li tarmoq va murabbiylik dasturlari kabi strategiyalar ekanini tajriba ko'rsatmoqda^[15]. Zero, xotin-qizlarning oliy hokimiyat organlarida ko'p bo'lishi ularning qanchasi saylov jarayonida ishtirok etayotgan erkaklar bilan raqobatlashishga qay darajada tayyor ekaniga bog'liq^[16].

Xotin-qizlar nomzodini ko'rsatuvchi partiyalarga ko'proq mablag' ajratish va ularni rag'batlantirish mumkin. Yosh xotin-qizlarni jalb etish siyosatda ayollarning faolligini ta'minlashda uzoq muddatli choraga aylanib bormoqda. Ommaviy axborot vositalarida ayol siyosatchining ijobiy timsolini yaratish choralari ko'rish va jamoatchilikni ayol kishi rahbar bo'lishini maqbul tarzda qabul qilishga tayyorlash zarur^[17]. Shunday qilib, kvotalar – bu boshqa vositalar bilan birgalikda va jamiyatda xotin-qizlarning mavqeini hamda ularning hokimiyatda rasmiyatchilik uchun emas, balki chinakam ishtirok etishini yaxshilash uchun qator shart-sharoitlar mavjud bo'lgandagina yaxshi ishlaydigan vositadir^[18].

2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida Gender tenglikka erishish strategiyasida bu masalalarga alohida e'tibor qaratilgan^[19]. Strategiyaga muvofiq saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- ♥ siyosiy partiyalarning saylov jarayonlariga xotin-qizlar va erkaklarni teng asosda jalb qilish, xotin-qizlarni tayinlanadigan rahbarlik lavozimlariga tavsiya qilishga oid faoliyatni rag'batlantirish;
- ♥ siyosiy partiyalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga saylovlarda nomzod ko'rsatishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanganligini monitoring qilish;
- ♥ xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish orqali ularga nisbatan jamiyatda shakllangan salbiy qarashlarni o'zgartirish;
- ♥ xotin-qizlar va erkaklarning davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqlariga to'liq rioya etilishini tahlil qilib borish;
- ♥ O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasining, saylov hamda referendumlar o'tkazish bo'yicha viloyat, tuman, shahar, okrug, uchastka saylov komissiyalarining tarkibini shakllantirishda xotin-qizlar va erkaklar vakillarining tengligini ta'minlash.

Shunday qilib, so'nggi yillarda amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida O'zbekiston Respublikasida hayot va faoliyatning barcha jabhalarida xotin-qizlar va erkaklarning teng huquq hamda imkoniyatlarini ta'minlash, xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilishga qaratilgan huquqiy baza yaratildi.



Xotin-qizlarning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida ishtirok etish huquqlariga kelsak, bu huquq nafaqat parlamentda, balki ijro etuvchi hokimiyat va sud-huquq tizimida ham vakil bo'lish huquqini ham o'z ichiga olishini qayd etish lozim. Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarida ham xotin-qizlar sonini oshirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, huquqni muhofaza qilish organlarida ham xotin-qizlar sonini oshirish choralarini ko'rish kerak^[20]. Shu munosabat bilan mahalliy hokimiyat organlari va huquqni muhofaza qilish organlarida xotin-qizlar sonini oshirish uchun gender kvotalar va boshqa vaqtinchalik maxsus chora-tadbirlarni qo'llash masalasini ko'rib chiqish zarur.

Sud tizimida xotin-qizlar sonini ko'paytirish choralarini ko'rish muhim ahamiyatga ega. Sud tizimida xotin-qizlar sonini oshirish zarurati BMTning Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyasi, Pekin deklaratsiyasi hamda Harakatlar platformasi doirasidagi O'zbekistonning majburiyatlaridan kelib chiqayotganini alohida ta'kidlash muhimdir.

Xususan, mazkur hujjatlar bilan xotin-qizlarga davlat lavozimlari va mansablarini egallashda teng imkoniyatlarni ta'minlash, davlat boshqaruvining barcha darajalarida, shu jumladan, sud-huquq tizimida ham barcha davlat funksiyalarini bajarish yuklanadi, ya'ni xotin-qizlarning sud organlaridagi sonini oshirish nafaqat gender tenglikni ta'minlash uchun xalqaro organlarning tavsiyasi, balki O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyati hamdir, uning bajarilishi nafaqat gender tenglikni ta'minlash darajasiga, balki xotin-qizlarning odil sudlovdan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga, demakki, umuman odil sudlovning sifatiga ham bog'liq.

Xotin-qizlarning davlat hokimiyati organlaridagi sonini oshirish chora-tadbirlaridan tashqari xalqaro munosabatlarning barcha darajalarida va barcha sohalarida xotin-qizlar ishtirokini ta'minlash choralarini ko'rish muhimdir. Bu majburiyat O'zbekiston tomonidan 1995-yilda ratifikatsiya qilingan BMTning 1979-yilgi Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi Konvensiyasining 8-moddasidan kelib chiqadi. 8-moddaga ko'ra "hukumatlar xalqaro munosabatlarning barcha darajalarida va barcha sohalarida xotin-qizlar vakil bo'lishini ta'minlashi kerak". Jumladan, BMT Xavfsizlik kengashining "Xotin-qizlar, tinchlik va xavfsizlik to'g'risida"gi 1325-sonli rezolutsiyasining asosiy mazmuniga ko'ra qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida va nizolarning oldini olish, tartibga solish va hal qilishning barcha mexanizmlarida xotin-qizlar vakil bo'lishini ta'minlamay turib mustahkam tinchlikka erishib bo'lmaydi.


O'zbekistonda tinchlik va xavfsizlikni targ'ib qilish bo'yicha barcha jarayonlarda xotin-qizlarning teng huquqli va har tomonlama ishtiroki masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu ularning ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama diplomatiyaning iqtisodiy va harbiy masalalarini hal qilishda ishtirok etishini, shuningdek, xalqaro va mintaqaviy konferensiyalarda rasmiy delegatsiyalar tarkibiga kiritilishini nazarda tutadi^[21].



b) Ko‘rilgan chora-tadbirlarning samaradorligi: yutuqlar va istiqbollar

Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilib, parlament yuqori palatasida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi, Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi tuzildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida ham Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tashkil etilib, uning rahbari O‘zbekiston Bosh vazirining o‘rinbosari maqomini oladi^[22].

2019-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga bo‘lib o‘tgan saylovda ro‘yxatga olingan 21 435 000 saylovchining qariyb 50 foizi yoki 10 825 641 kishi xotin-qizlarni tashkil etdi. Mazkur saylovda ko‘rsatilgan nomzodlarning 41 foizini ayollar tashkil etib, ularning soni O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksida belgilangan 30 foizlik kvotadan oshib ketdi. Taqqoslash uchun so‘nggi 28 yil ichida ayollarning parlamentdagi ishtiroki sezilarli darajada oshganini ko‘rish mumkin (*1-rasmga qarang*).




1-rasm. O‘zbekiston parlamentida (Qonunchilik palatasi) ayollar sonining o‘shish dinamikasi¹

O‘zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda ayollar soni BMT tomonidan tavsiya qilingan darajaga yetdi. 2022-yil oktabr oyida Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida O‘zbekiston parlamentidagi ayol a‘zolar ulushi 33,3 foizni tashkil etdi (*2-rasmga qarang*).

¹ Manba <https://www.equalfuture-eurasia.org/>

Parlament a'zolari

Yevropa va Markaziy Osiyodagi ko'pgina mamlakatlar va hududlarda gender tenglikni va xotin-qizlarning parlamentdagi ulushini oshirish uchun kvota tizimlari joriy qilindi. Bu muvaffaqiyatga erishish imkonini berdi, biroq chinakam gender tenglikka erishish uchun uzoq yo'lni bosib o'tishimiz kerak. 2022-yil oktabr holatiga ko'ra parlamentning ayol a'zolarining eng yuqori foizi Shimoliy Makedoniyada qayd etildi: 120 parlament a'zosidan 50 nafari yoki 41,7 foizi xotin-qizlardir.



Parlamentning ayol a'zolari foizi

2-rasm. Yevropa va Markaziy Osiyo mamlakatlarida parlamentning ayol a'zolari foizi²




² Manba <https://www.equalfuture-eurasia.org/>

Shunday qilib, 2023–yil 18–dekabrda saylov qonunchiligiga kiritilgan so‘nggi tuzatishlar bilan^[24] xotin–qizlar uchun kvota mahalliy hokimiyat organlariga ham, parlamentga ham saylovda siyosiy partiyalar tomonidan ko‘rsatiladigan nomzodlar umumiy sonining avvalgi 30 foizidan 40 foizigacha oshirildi. Saylov kodeksining^[25] 70–moddasiga muvofiq ayollarning soni bir mandatli saylov okruglari bo‘yicha, shuningdek partiya ro‘yxati asosida siyosiy partiyadan ko‘rsatilgan deputatlikka nomzodlar sonining kamida qirq foizini tashkil etishi kerak. Bunda partiya ro‘yxatidagi ketma–ketlikda kamida har besh nafar nomzodning ikki nafari ayol kishi bo‘lishi lozim. Shuningdek, har bir siyosiy partiyada ayollar qanotlari tashkil etilgan bo‘lib, ular orqali maqsadli dasturlarni amalga oshirishda, jamiyat hayotidagi muammolarni hal etishda ishtirok etiladi.



3–rasm. O‘zbekiston Respublikasida siyosatda va davlat boshqaruvida ayollar ishtiroki³

Vazirlar yoki hukumat a‘zolari



4–rasm. O‘zbekiston Respublikasining ayol vazirlari/hukumat a‘zolari⁴

3 Manba <https://www.equalfuture-eurasia.org/>

4 Manba <https://www.equalfuture-eurasia.org/>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi Farmoni bilan qabul qilingan “O‘zbekiston–2030” strategiyasining 25-bandida ham “Xotin–qizlarni qo‘llab–quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta‘minlash” ko‘rsatilgan, unda “gender tenglikni ta‘minlash siyosatini davom ettirish, xotin–qizlarning ijtimoiy–siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin–qizlar ulushini 30 foizga oshirish” nazarda tutiladi^[26].




II. SIYOSIY HAYOTDA XOTIN-QIZLAR ISHTIROKIGA TO'SIQLAR



2.1. Umumjahon tendensiyalari

So'nggi paytlarda xotin-qizlar huquqlari va ularning qarorlar qabul qilish jarayonidagi ishtiroki o'rtasidagi mutanosiblik masalasi ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar va siyosiy tashkilotlarning kun tartibida oldingi o'rinni egallab, xalqaro miqyosda tobora ko'proq muhokama qilinayotgan mavzuga aylanmoqda. Ayollarning siyosatdagi roli sezilarli darajada oshgani qayd etilmoqda; ular siyosiy strategiyalarning nishoni va saylovchilarning asosiy qismi bo'lishdan siyosiy muloqotda va davlat boshqaruvida faol va ta'sirli shaxslarga aylana boshladi. So'nggi o'n yilliklarda turli mamlakatlarda siyosatda va boshqaruv lavozimlarida ayollar soni sezilarli darajada oshganiga qaramay, hokimiyat iyerarxiyasining barcha darajalarida ularning teng huquqli ishtiroki masalasi hanuzgacha dolzarb bo'lib, hal etilmayapti (5-rasmga qarang).



5-rasm. Yevropa va Markaziy Osiyodagi 18 mamlakat va hududlarda qaror qabul qilishning yuqori darajalaridagi ayollar soni⁵

5 Manba <https://www.equalfuture-eurasia.org/>



2023–yil 1–yanvar holatiga ko‘ra mamlakatlarning 11,3 foizida ayollar rahbarlik qiladi (151 ta mamlakatdan 17 tasi, monarxiya tizimidan tashqari), 9,8 foizida esa ayollar hukumatga rahbarlik qiladi (193 ta mamlakatdan 19 tasi). O‘n yil oldin ko‘rsatkichlar tegishli ravishda 5,3 foizni va 7,3 foizni tashkil etgan edi. Ayollar rahbarlik qilayotgan mamlakatlar soni hali ham boshqa mintaqalarga qaraganda Yevropada ko‘proq^[27].

Parlamentlararo ittifoq (PI) Bosh kotibi Martin Chungong shunday degan edi: “Bu yili biz **siyosatda ayollar soni muntazam oshib borayotganini kuzatyapmiz, bu esa quvonarlidir**. Biroq gender tenglikka erishish uchun hali uzoq yo‘lni bosib o‘tishimiz kerak, o‘shanda hozirgi o‘shish sur‘atlarini ko‘ra olamiz. Iqlim o‘zgarishi, geosiyosiy keskinlik, iqtisodiy beqarorlik va ijtimoiy tengsizlik bilan bog‘liq inqirozlarni hisobga olganda dunyo ahli ayollarning iste‘dodidan yaxshiroq foydalanishi va ularni siyosat bilan imkon qadar ertaroq shug‘ullanishga undashi kerak”^[28].

Shu bilan birga, dunyo hali ham siyosiy sohada gender tenglikdan yiroq. Jumladan, 2023–yilda ayollarning parlamentdagi soni sust va noaniq tarzda oshdi. Butun dunyoda ayol deputatlar ulushi 2024–yil 1–yanvar holatiga ko‘ra 26,9 foizni tashkil etdi, bu 12 oy avvalgidan atigi 0,4 foizga ko‘p. 2022–yilda ham o‘shish sur‘ati shunday bo‘lgan edi va bu avvalgi yillarga qaraganda sekinroqdir.

2023–yilda 52 ta mamlakatdagi parlamentlarning 66 ta palatasida parlament saylovlari o‘tkazildi. Ushbu palatalarning 32 tasida ayollar soni oshdi. Xotin–qizlar ulushi 19 ta palatada kamaydi va qolgan 15 ta palatada o‘zgarishsiz qoldi yoki 1 foizdan kamroqqa o‘zgardi. 2023–yilda parlamentlar yangilangan mamlakatlarda ayollar barcha palatalarda saylangan deputatlarning 27,6 foizini tashkil etdi, bu o‘sha mamlakatlardagi avvalgi saylovlarga qaraganda 1,4 foiz bandga ko‘pdir^[29].

Bu kuzatishlar gender stereotiplar va xotin–qizlar siyosatda duch kelayotgan to‘siqlar bilan bevosita bog‘liq. Xotin–qizlarning roli va qobiliyatlari haqidagi gender stereotiplar siyosiy jarayonda ishtirok etish uchun ularning imkoniyatlarini va siyosiy faolligini jiddiy ravishda cheklashi mumkin. Masalan, **ularning saylanish va qarorlar qabul qilishda samarali ishtirok etish imkoniyatlariga putur yetkazishi mumkin.**

Boshqa tomondan, **kasbi va oilaviy hayotini uyg‘unlashtira olmaslik, qo‘llab–quvvatlovchi resurslar va tarmoqlardan foydalanishning cheklanganligi, ham saylovchilar, ham siyosiy maydondagi hamkasblari tomonidan xolis fikr yuritilmasligi va kamsitish** kabi to‘siqlar xotin–qizlar uchun katta to‘siq bo‘lib qolmoqda. Bu omillar nima uchun siyosatda va boshqaruvda ayollar soni sezilarli darajada oshganiga qaramay, hokimiyatning barcha darajalarida teng ishtirok etish ta‘minlanmayotganini izohlashi mumkin (*6–rasmga qarang*).



Qiyinchiliklar

Ko'p joylarda ayollar hali ham gender va madaniy me'yorlar tufayli ishonchli va qobiliyatli yetakchilar sifatida qabul qilinmaydi.



Xotin-qizlar faqat ma'muriy yoki zaxira lavozimlarini egallasa, bu jinslar o'rtasidagi hokimiyatning teng taqsimlanishiga olib kelmaydi.



Siyosatdagi ayollarga salbiy munosabat turli shaklda bo'lishi mumkin, jumladan zo'ravonlik, qo'rqitish, onlayn ta'qib qilish, shilqimlik va tahqirlash.



Hukumatlar "Gender tenglik" va "Oila masalalari" toifalarini birlashtirganda xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish masalalari ortda qolib ketishi yoki ustuvorligini yo'qotishi xavfi paydo bo'ladi.



COVID-19 pandemiyasi gender tafavutini kuchaytirdi: xotin-qizlar nomutanosib darajada katta hajmda haq to'lanmaydigan parvarishlash ishlarini o'z zimmlariga olishmoqda.



Siyosatdagi ayollar ko'pincha ikki xil standartlarga duch kelishadi va bir xil lavozimdagi erkaklarga nisbatan ancha qattiqroq tanqid va nazoratga duchor bo'lishadi.



Vazir ayollarning eng keng tarqalgan majburiyatlari: oila, bolalar, yoshlar, keksalar va nogironlar masalalari.

6-rasm. Siyosatda xotin-qizlar duch kelayotgan to'siqlar va gender stereotiplar⁶

Siyosiy maydonda xotin-qizlar va erkaklarning bir xil ishtirokini ta'minlashda **gender stereotiplar** asosiy rol o'ynaydi; ular xotin-qizlarning huquq, hokimiyat, resurslar va axborotdan foydalanish imkoniyatlariga tizimli ravishda ta'sir qiladi va shu orqali ularning hayotning turli sohalarida, jumladan, siyosatda ishtirok etishga qodirligini cheklaydi. Muhim siyosiy lavozimlarda ayollarning yo'qligi "jins", erkak va ayol o'rtasidagi biologik farqlar va "gender" – jamiyat tomonidan xotin-qizlar va erkaklarga beriladigan rollar, xulq-atvor, faoliyat va o'ziga xos jihatlar yanglish tasavvurlarni keltirib chiqarishini ko'rsatmoqda; gender rollar xotin-qizlar resurslar va hokimiyatdan kamroq foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishiga olib kelmoqda, Louless va Foksning fikricha^[30], bu ularning siyosiy intilishlariga ta'sir qilmoqda.

Gender stereotiplar psixologik jihatlar va xulq-atvor xususiyatlari, shuningdek, erkaklar va xotin-qizlar uchun mos deb hisoblanadigan faoliyat turlari haqidagi tasavvurlarni o'z ichiga oladi^[31]. Erkaklik va ayollik bilan bog'liq qarashlar va afzalliklar erkaklar va ayollardan turli rollarni bajarish kutilishiga olib kelmoqda, bu esa ko'pincha feministik nazariyalarda (masalan, Kerol Peytman) jamoatchilik va shaxsiy sohalarga bo'linish sifatida talqin qilinadi. O'rnashib qolgan an'anaviy qarashlar, munosabatlar va gender standartlar erkaklar va ayollarga jamiyatda turli xil rollarni belgilab beradi: erkaklar jamiyat hayotida, jumladan siyosat, iqtisodiyot, moliya va biznesda faol qatnashgan, xotin-qizlarga esa uyda va oilada asosiy rol berilgan. Gender rollarning bunday ijtimoiy tuzilishi xotin-qizlarning saylanadigan lavozimlarga nomzod bo'lish imkoniyatlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

⁶ Manba <https://www.equalfuture-eurasia.org/>

Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish qo‘mitasining 23-sonli umumiy tavsiyasida^[32] shunday deyiladi: “tarixan erkaklar jamiyat hayotida ustunlik qilgan va xotin-qizlar faoliyatini xususiy soha bilan cheklash uchun hukmronlik qilgan va ayollarga bo‘ysunuvchi roli berilgan. Xotin-qizlarning oila va jamiyatni ta‘minlashda markaziy o‘rin tutushiga va taraqqiyotga qo‘shgan hissasiga qaramay, ular siyosiy hayotdan va qarorlar qabul qilish jarayonlaridan chetda qolib ketgan, bu qarorlar ularning kundalik hayoti va jamiyat kelajagini belgilab bergan. Ayniqsa, inqirozlar vaqtida bunday istisno xotin-qizlarning ovozini bo‘g‘ar va ularning hissasi va tajribasi e‘tibordan chetda qolib ketar edi”.

Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish qo‘mitasi asosiy to‘siqlar sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi: “Barcha mamlakatlarda **qadriyatlar va diniy e‘tiqodlarning madaniy doiralari, xizmatlar yo‘qligi va erkaklarning uy-ro‘zg‘or ishlarini tashkil etish, bolalarga qarash va ularga ta‘lim berish bilan bog‘liq vazifalarni bajarishda ishtirok etishni istamasligi** ayollarning jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyatini cheklaydigan eng jiddiy omillar hisoblanadi.

Barcha mamlakatlarda **madaniy an‘analar va diniy e‘tiqodlar** xotin-qizlarning shaxsiy faoliyatdagi ishtirokini cheklashda va ular jamiyat hayotida faol ishtirok etishdan chetlashtirilishida muayyan rol o‘ynaydi”. Shuningdek, Qo‘mita ta‘kidlashicha, ayollarni uy mehnati yukining bir qismidan ozod qilish ularga o‘z jamiyatlari hayotida to‘liqroq ishtirok etish imkonini beradi.

Xotin-qizlarning iqtisodiy jihatdan erkaklarga qaramligi ko‘pincha ularga muhim siyosiy qarorlar qabul qilishga va jamiyat hayotida faol ishtirok etishga to‘sqinlik qiladi. Ularning gardaniga tushayotgan qo‘shaloq yuk va ularning tobeligi, shuningdek, ham ijtimoiy, ham siyosiy hayotda **davomli yoki qulay bo‘lmagan ish jadvali** ayollarga faolroq harakat qilish imkonini bermaydi.

Stereotiplar yaratish, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari orqali yaratish xotin-qizlarning siyosiy hayotda ishtiroki atrof muhit, bolalar va sog‘liqni saqlash kabi masalalar bilan cheklanib qolishiga olib keladi va ular moliya, budjetni nazorat qilish va nizolarni hal qilish kabi mas‘uliyatli sohalardan chetlashtiriladi.

Siyosatchi bo‘lib yetishib chiqadigan kasblar orasida xotin-qizlar ulushi ozligi yana bir to‘siqdir. **Ayol rahbarlar hokimiyat tepasiga keladigan mamlakatlarda bu ularning o‘z qobiliyatlari bilan saylovdagi muvaffaqiyati tufayli emas, balki ko‘proq otalari, turmush o‘rtoqlari yoki erkak qarindoshlarining ta‘siri natijasi bo‘lishi mumkin.**

Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish qo‘mitasining 23-sonli umumiy sharhiga ko‘ra ushbu huquqlarni amalga oshirishga to‘sqinlik qiladigan omillarga quyidagilar kiradi:

a) xotin-qizlar ko‘pincha nomzodlar va partiyalarning siyosiy platformalari va ovoz berish tartib-taomillari haqidagi axborotdan, hukumatlar va siyosiy partiyalar tomonidan ular e‘tiboriga yetkazilmaydigan ma‘lumotlardan erkaklarga qaraganda kamroq foydalanish imkoniyatiga ega.



Xotin-qizlarning savodsizligi, siyosiy tizimlar yoki siyosiy tashabbuslar va siyosatning ularning hayotiga ta'siri haqida bilim va tushunchalari yetishmasligi ularning o'z saylov huquqini to'liq va teng huquqli amalga oshirishiga to'sqinlik qiladigan boshqa muhim omillar hisoblanadi. Huquqlari, majburiyatlarini va ovoz berish huquqi tufayli o'z hayotini o'zgartirish imkoniyatlarini tushunmaslik ham xotin-qizlar har doim ham saylovda qatnashish uchun ro'yxatdan o'tavermasligiga sabab bo'ladi;

b) xotin-qizlarga ikki baravar ko'p mehnat yuki tushishi, shuningdek, moddiy qiyinchiliklar ayollarning bo'sh vaqtini va saylovoldi kampaniyalarini kuzatish hamda o'z ovoz berish huquqini amalga oshirish erkinligidan to'liq foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi;

v) ko'pchilik mamlakatlarda an'analar, ijtimoiy va madaniy stereotiplar xotin-qizlarning o'z saylov huquqidan foydalanishiga to'sqinlik qiladi. Ko'pchilik erkaklar ishontirish yoki to'g'ridan-to'g'ri harakatlar, shu jumladan, ularning nomidan ovoz berish orqali xotin-qizlarning ovoz berishiga ta'sir ko'rsatadi yoki bu jarayonni nazorat qiladi. Har qanday bunday amaliyotga chek qo'yish kerak;

g) Xotin-qizlarning harakatlanish erkinligi yoki ishtirok etish huquqlari cheklanishi, ayollarning siyosatda ishtirok etishiga salbiy munosabatning ustunligi yoki saylovchilarning ayol nomzodlarga ishonchi va ularni qo'llab-quvvatlamasligi ayrim mamlakatlarda xotin-qizlarning o'z jamiyatida ijtimoiy yoki siyosiy hayotda ishtirok etishini cheklovchi boshqa omillar hisoblanadi. Bundan tashqari, ba'zi ayollar siyosatda ishtirok etishni nomaqbul deb hisoblaydi va shuning uchun siyosiy kampaniyalardan o'zini olib qochadi.

Ushbu hisobotni tayyorlash doirasida FGM davomida Qo'mitaning O'zbekiston bo'yicha ushbu bayonotlari qanchalik to'g'ri ekani muhokama qilindi.

Tadqiqotda, shuningdek, mahalliy Kengashlar ayol deputatlarining siyosiy faolligiga ta'sir etadigan to'siqlar va gender stereotiplar haqidagi asosiy qarashlar tahlil qilinadi.

Tadqiqot ayol deputatlar o'rtasida ular o'z hududlarida duch kelayotgan to'siqlar va noxolis qarashlarni aniqlash maqsadida fokus-guruh muhokamalari (FGM) orqali o'tkazildi. Ayrim mintaqaviy tafovutlarga qaramay, umuman olganda, ayol siyosatchilar o'z siyosiy ishtiroki va rivojlanishini cheklaydigan jinlar rollari haqida o'xshash an'anaviy qarashlarga duch kelayotgani aniqlandi.

Quyida ayollar siyosatda duch kelayotgan umumiy va o'ziga xos to'siqlarni ajratib ko'rsatadigan FGM davomida aniqlangan asosiy gender stereotiplar va to'siqlar keltirilgan. FGM davomida siyosatda ishtirok etish yo'lidagi asosiy to'siqlar sifatida oila va bolalar uchun javobgarlik, mehnatning an'anaviy gender taqsimlanishi, ijtimoiylashuv jarayonlari, ayol deputatlarga nisbatan jamoatchilikdagi shubha-gumonlar, shuningdek, moliyaviy to'siqlar kabi ko'plab muammolarni keltirib chiqaradigan bir qator o'zaro bog'liq omillar aniqlandi.

2.2. O'zbekistondagi asosiy to'siqlar

FGM yakunlari, onlayn-so'rov va olingan ma'lumotlarning tahlili natijalari asosida xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish uchun bir qator asosiy to'siqlar aniqlandi. Tizimlashtirish uchun biz ularni quyidagilarga ajratdik:

1. ijtimoiy-madaniy (stereotiplar, jamoatchilik fikri)
2. ijtimoiy-iqtisodiy (moliyaviy to'siqlar)
3. xavfsizlikni ta'minlash omillari (tazyiq va shilqimlik, ta'qib)

Jiddiy to'siqlar		
Ijtimoiy-madaniy	Ijtimoiy-iqtisodiy	Xavfsizlik omillari/tahdidlari
Stereotiplar Jamoatchilik fikri	Moliyaviy to'siqlar Mobillik	Tazyiq va shilqimlik Ta'qib

1. Ijtimoiy-madaniy omillar

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar ayollarning siyosiy institutlar faoliyatida ishtirok etish imkoniyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. **Oilaviy majburiyatlar, ta'lim va moliyaviy resurslarning yetishmasligi, shilqimlik, kamsitish va ta'qib bilan bog'liq omillar bunday to'siqlar sirasiga kiradi.**

a) Uy yumushlari yoki ayollarning oiladagi roli haqidagi stereotiplar

Mahalliy darajadagi ayol deputatlar bilan FGM davomida olingan javoblar tahlilida **ham uy yumushlarini, ham kasbiy majburiyatlarini bajarish uchun vaqt yetishmasligi ularning siyosiy hayotda ishtirok etishida eng katta to'siq** ekani aniqlandi. Muhokamalar ishtirokchilari jamiyat an'anaga ko'ra ayollardan oilaga, shu jumladan, turmush o'rtoqlari, bolalari va keksa qarindoshlariga g'amxo'rlik qilishini kutayotganini, natijada esa ijtimoiy-siyosiy faoliyatda faol ishtirok etish uchun kam vaqt qolayotganini ta'kidladi. Bundan tashqari, uy yumushlari bilan birga ishda to'liq band bo'lish siyosatga aralashish uchun jiddiy qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

Ayollar ko'pincha o'rta yoshda (40-45 yosh va undan yuqori), ya'ni bevosita oilaviy majburiyatlardan va bolaga qarashdan nisbatan ozod bo'lgan vaqtda siyosatga kirib keladi degan ayrim ayol deputatlarning fikri qiziqish uyg'otdi. Bu taxmin ularning o'z tajribasi va kuzatishlari bilan tasdiqlanadi. Bu ayollar ma'lum yoshga to'lib, oilaviy hayotini yo'lga qo'yib olgandan keyingina siyosiy hayotda faolroq ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'lishini anglatadi.

Ayrim deputatlar siyosiy karyeraning kech boshlanishi ijobiy qabul qilinishini yosh ulg'aygani sayin katta hayotiy tajriba shakllanishi, bu esa saylovchilar bilan ishlashda muhim xususiyat ekani bilan izohlashga urg'u beradi, ya'ni siyosatga kirishishda kechikish kamchilik

sifatida emas, balki jamiyat manfaatlarini samaraliroq ifodalashga ko'maklashadigan bilim va ko'nikmalarni to'plash imkoniyati sifatida qabul qilinadi.

Deputatlar moliyaviy barqarorlikka erishish ayollar siyosiy faoliyatni o'rta yoshda boshlashi sabablaridan biri ekaniga, bu mahalliy darajada deputatlik faoliyati ko'pincha jamoatchilik asosida ishlashni nazarda tutishi hisobga olinsa, muhim ekaniga urg'u berishdi. Bu asosiy kasbiy faoliyatni siyosiy ish bilan uyg'unlashtirishga imkon beradi, bunday tanlov ko'pchilik ayollar uchun qulay va amaliy bo'lishini ta'minlaydi.

Shuningdek, ko'pchilik deputat ayollar turmush o'rtog'i va oiladagi boshqa yaqinlari tomonidan qo'llab-quvvatlansa-da, o'z oilasiga, ayniqsa, farzand tarbiyasiga yetarlicha vaqt ajrata olmayotganidan o'zini aybdor his qilayotganini qayd etdi. Bu ayollar siyosiy faoliyatga intilish jarayonida duch keladigan shaxsiy va kasbiy hayot o'rtasida muvozanatni saqlash murakkabligidan darak beradi.

Fokus-guruh muhokamalari ishtirokchilari ayollarning siyosiy hayotda ishtirok etishidagi to'siqlarni muhokama qilishdan tashqari uy yumushlari va siyosiy faoliyatni muvaffaqiyatli birga olib borish ko'p jihatdan ayolning shaxsiy fazilatlarini, uning jonbozligi va intiluvchanligiga bog'liq degan fikrni bildirdilar. Siyosatda muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'lgan ayol, agar u yetarlicha g'ayratli va intiluvchan bo'lsa, ham uy yumushlarini, ham siyosiy faoliyatni boshqara olishiga urg'u berildi.

Shunday qilib, mahalliy darajadagi ayol deputatlar bilan o'tkazilgan FGM natijalari mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar va madaniy xohish-istaklar ularning siyosiy jarayonlarda ishtirok etish imkoniyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishini yaqqol ko'rsatdi va bunday to'siqlarni bartaraf etish uchun chora ko'rish zarurligiga urg'u berdi.

b) Xotin-qizlarning jamiyatdagi roli haqida o'rnashib qolgan gender stereotiplar

An'anaviy gender rollar xotin-qizlarning siyosatdagi ishtirokiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy madaniy omillar hisoblanadi. Bu omil yuqoridagi omil bilan chambarchas bog'liq. Bu rollar ijtimoiylashishning turli amaliyotlari va oilalar, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari tomonidan targ'ib qilinadigan mashhur mafkuralarning natijasi hisoblanadi. Ular boshqa institutlar kabi xotin-qizlarning ijtimoiy hayotga bo'lgan ishonchiga va siyosatni ishtirok etish uchun mos keladigan va kerakli soha sifatida qabul qilishiga chuqur ta'sir o'tkazadi.

Mahalliy darajadagi ayol deputatlar bilan FGMda nafaqat an'analar ularning jamiyat va siyosatdagi o'rnini qanday belgilab berishi haqidagi masala, balki ularning ushbu madaniy to'siqlarni qanday yengib o'tishi to'g'risidagi shaxsiy hikoyalar ham ko'tarildi. Ko'pchilik ularning yo'lida nafaqat ayol birinchi navbatda ona va uy bekasi bo'lishi kerak deb fikrlovchi jamiyat, balki ba'zan ularning siyosiy faoliyatga intilishini qo'llab-quvvatlashga tayyor bo'lmagan oilasi, jumladan turmush o'rtog'i to'g'anoq bo'lib turganini bildirdi.

Ayol kishining siyosiy faolligi va muvaffaqiyati uning turmush o'rtog'idan ijtimoiy va kasbiy jihatdan ustun bo'lishiga olib kelishi mumkinligidan xavotirlanish erlar tomonidan ayollarning qo'llab-quvvatlanmasligining eng keng tarqalgan sabablaridan biri hisoblanadi.



Bu, o'z navbatida, jamiyatda salbiy munosabatni keltirib chiqarishi va natijada turmush o'rtog'ining ijtimoiy mavqeiga putur yetkazishi mumkin.

Xotin-qizlarning siyosiy sohada ishtirok etishga intilishini qiyinlashtiradigan qo'shimcha omillar yuqoridagi to'siqlarga qo'shimcha bo'ladi. Turmush o'rtog'ining siyosiy faolligidan erkaklarning xavfsirashi nafaqat ijtimoiy mavqeini yo'qotishdan qo'rqishiga, balki ayolining asosan erkaklar muhitida ishlashi tufayli rashk qilishi va xavotir olishiga ham asoslanadi. Ayollarning uy yumushlarini siyosiy faoliyat bilan uyg'unlashtira olishidan tashvishlanish, shuningdek, ayollariga siyosatda ishtirok etishga ruxsat bergani uchun erkaklarning jamoatchilik tomonidan qoralanishi tufayli bunday tuyg'ular yanada kuchayaveradi.

Demak, siyosat bilan shug'ullanishga intilayotgan **ayollar nafaqat tashqi madaniy va ijtimoiy to'siqlarga, balki oila ichidagi qarama-qarshiliklarga** ham duch keladi. Bu oila va jamiyatdagi rollarning taqsimlanishiga ta'sir qilishda davom etayotgan, ayollarning siyosiy faolligini cheklayotgan chuqur o'rnashib qolgan ijtimoiy-madaniy me'yorlar va xohish-istaklarni aks ettiradi.

Muhokamalar davomida ma'lum bo'ldiki, ko'pchilik xotin-qizlar uchun siyosatga yo'l faqatgina jamiyatda o'z o'rnini egallash uchun kurashish emas, balki oila a'zolari bilan murakkab muzokaralar jarayoni hamdir va bu ulardan ko'p harakat qilishni va murosa qilishni talab qiladi. Ular faqat birgalikdagi sa'y-harakatlar va shaxsiy munosabatlardan tortib milliy qonunchilik tashabbuslarigacha bo'lgan barcha darajalarda o'zgarishlar yuz berganda jamoatchilik munosabatini o'zgartirish va siyosatda tenglikka erishish mumkinligiga ishonch bildirdilar.

v) Siyosatdagi ayollarga nisbatan jamoatchilik munosabati

Mahalliy darajadagi ayol deputatlar ishtirokidagi FGM davomida gender rollar haqidagi stereotip tasavvurlar ularning siyosiy faolligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi. Muhokama ishtirokchilari **jamoatchilik** noan'anaviy yo'lni tanlagan, shu jumladan, siyosiy faol bo'lgan ayollarni an'anaviy tarzda tanqid qilishga moyil ekanini, oilaviy majburiyatlardan chetga chiqqani uchun buni ayollarga xos emas deb bilishini ta'kidladi.

Jamiyat o'tmishda siyosat ayollarning faoliyat sohasi emas deb hisoblab, ayollarni siyosiy sohadan chetlashtirishni qo'llab-quvvatlagani ta'kidlandi. Shuningdek, ishtirokchilar yetakchilik xislatlarini qabul qilishda ikki tomonlama standartlar borligini, jumladan erkak rahbarlarning avtoritar xatti-harakati ayollarning shunday xatti-harakatiga qaraganda osonroq qabul qilinishini ta'kidladi.

Jamiyatda rahbarlik lavozimlarida ishlayotgan ayollarni turmush o'rtog'iga nisbatan haddan tashqari ustun deb hisoblash tendensiyasi mavjud ekani, bu esa patriarxal jamiyatlarda nomaqbul deb qaralishi qayd etiladi. **Yuksak lavozimlarga ko'tarilgan ayollarga ko'pincha "o'zini erkaklardek tutadigan keskin tabiatli ayollar" degan yorliq beriladi**, bu esa ularning ijtimoiy qabul qilinishiga putur yetkazadi va umuman ayollarning siyosiy faolligiga ta'sir o'tkazadi.



Bu xulosalar rahbar ayollarga nisbatan salbiy qarashlar ularning siyosatda ishtirok etishini kamaytirishda muhim rol o'ynashidan, shu sababli ayollarning siyosatdagi ishtiroki uchun adolatliroq va teng huquqli shart-sharoit yaratish uchun gender stereotiplarni qayta ko'rib chiqish va o'zgartirish zarurligidan darak beradi.

2. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar va mobillikning cheklanganligi

a) Moliyaviy to'siqlar

Fokus-guruh muhokamalari (FGM) vaqtida olingan javoblar tahlili davomida **moliyaviy to'siq xotin-qizlarning siyosiy faoliyatiga g'ov bo'ladigan asosiy omillardan biri** ekani aniqlandi. Muhokama ishtirokchilari kam haq to'lanadigan sohalarda xotin-qizlarning ulushi tobora yuqori bo'lib borayotganini, bu ularning ko'pchiligi o'z deputatlik vazifalarini samarali bajarish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarga ega emasligiga olib kelishini qayd etdi. Ma'lumki, mahalliy Kengashlar deputatlari odatda rahbarlik lavozimlarida ishlayotgan va yuqori haq to'lanadigan lavozimlarni egallab turgan nomzodlar orasidan saylanadi, bu esa fuqarolar murojaatlari bilan ishlashda qo'shimcha yordam bo'lib xizmat qiladi. Biroq ayollar har doim ham bunday lavozimlarni egallash imkoniyatiga ega emas, bu ham to'siq hisoblanadi.

Bundan tashqari, **mahalliy Kengash a'zosi sifatida haq to'lanmaydigan faoliyat bilan bog'liq moliyaviy to'siqlar** ham qayd etildi. Ishtirokchilar mahalliy Kengashlar deputatlarining mehnatiga haq to'lanmasligi va saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkaziladigan joylarga borishga sarflanadigan xarajatlarni o'z hisobidan qoplashi zarurligi ayol deputat zimmasiga katta moliyaviy yuk bo'lishini ta'kidladi. Bu, ayniqsa, ayol deputatlar boshqa yuqori haq to'lanadigan lavozimlarni egallamagan bo'lsa, ularning ishini va saylovchilarning muammolarini hal etishini qiyinlashtiradi.

b) Transport bilan ta'minlashda qo'llab-quvvatlanmaslik

Ishtirokchilar moliyaviy to'siqlarga qo'shimcha ravishda **siyosiy faolligi uchun jiddiy to'siq sifatida mobillik muammosini** qayd etdi. Ular saylovchilar bilan samarali hamkorlik qilish uchun ularning saylov okrugi boshqa joyda joylashgan bo'lsa ham, chekka hududlarga borishi zarurligini ta'kidladi. Bu zarurat deputatlarga qo'shimcha bosim o'tkazadi, chunki bu katta vaqt va mablag' sarflashni talab qiladi.

Bundan tashqari, **mahalliy hokimiyat organlari tomonidan transport bilan ta'minlash bo'yicha tizimli yordam ko'rsatilmamasligi** deputatlarni o'z tashriflari uchun o'z hisobidan haq to'lashga majbur qilib, vaziyatni sezilarli darajada murakkablashtiradi. Bu nafaqat ularning xarajatlarini oshiradi, balki saylovchilar bilan uchrashuvlar tashkil etishni ham ancha qiyinlashtiradi.



3. Xavfsizlikni ta'minlash omillari

a) Tazyiq va shilqimlik

Fokus-guruh muhokamalari davomida xotin-qizlar siyosatda duch kelayotgan o'ziga xos qiyinchiliklardan darak beradigan ayrim voqealar yoritildi. Muhokamada qatnashganlar **shilqimlik va ta'qib qilishning turli shakllari** yuzasidan o'z tajribalari bilan o'rtoqlashdi.

Xotin-qizlarning yoshligi va asosan erkaklar faoliyat sohasiga kirib kelayotgani tufayli ularga shilqimlik qilinishi xotin-qizlar siyosiy maydonga qadam qo'yayotganda duch kelgan asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Bu siyosatdagi ayollarni qabul qilishga ta'sir qiladigan gender aqida va stereotiplardan darak beradi.

Trening ishtirokchilarining anonim hikoyalari FGMdagi muhokamalarni tasdiqlaydi. Trening vaqtida ayollardan biri o'z hikoyasini aytib berdi:

"Men o'z lavozimimda ishlayotganimda rahbarim menga shilqimlik qilgan. U menga odobsiz taklif bilan chiqdi va men uni qat'iyon rad etdim. Shundan keyin u meni obro'sizlantirish uchun noxolis tekshiruvlar uyushtirib, men uchun keskin ish muhitini keltirib chiqara boshladi.

Men jim turmay, shilqimlik va bosim o'tkazgan holatlarni batafsil bayon qilib, yuqori turuvchi rahbariyatga shikoyat qildim. Shikoyatim ko'rib chiqildi va rahbar lavozimidan chetlatildi. Bu o'z huquqlaringizni himoya qilib, shilqimlik qiladigan kimsalarga qarshi kurashish mumkinligini ko'rsatdi".

Boshqa ishtirokchi ham o'z hikoyasi bilan o'rtoqlashdi:

"Deputatlik faoliyatim davomida bunday sinovlar bo'ladi, deb o'ylamagan edim. Bir kuni yuqori martabali rahbar, agar nufuzli amaldor bilan ishqiy munosabatlarga kirishishga rozi bo'lsam, lavozimimni ko'tarishlari mumkinligini aytdi. Bu haqoratimiz va mening barcha prinsiplarimga zid edi. Rad etsam, bu mening faoliyatimga zarar yetkazishi mumkinligini anglab, qo'rqib ketdim, lekin bunga hech ham rozi bo'la olmas edim.

Qo'rquv va xavf-xatarlarga qaramay, men qat'iyon rad etdim. Bu holat qalbimda chuqur iz qoldirdi, biroq men o'z prinsiplarimga sodiq qolishim kerakligini angladim. Bo'lib o'tgan voqea haqida jim turmaslikka va o'z huquqlarim va qadr-qimmatim uchun kurashni davom ettirishga qaror qildim. Bu tajriba halol mehnat va professionallik orqali muvaffaqiyatga erishish istagimni yanada kuchaytirdi".



Bundan tashqari, ayol deputatlar Kengash sessiyalarida boshqarmalar rahbarlariga ularning kasbiy faoliyatiga taalluqli tanqidiy savollar berganidan keyin asosiy ish joyida ta'qibga uchragan holatlar ham qayd etildi. Bu ayol deputatlar o'z ijtimoiy burchini bajarish va saylovchilar manfaatlarini himoya qilishda qo'shimcha to'siqlarni yengib o'tishi kerakligini ko'rsatmoqda.

Misol uchun, trening ishtirokchilari siyosatchi ayollar va rahbarlik lavozimlariga tayinlanadigan ayollar Internet tarmog'ida **nafrat va haqoratlarga** duch kelishini ham qayd etdi. Bu voqealar ko'pincha ommaviy axborot vositalarida o'z nuqtai nazarlarini ifodalash uchun to'siqlar yaratadi. Bu to'siq jiddiy muammo hisoblanadi, chunki **amaliyotda o'zining tanqidiy chiqishlari bilan tanilgan mahalliy Kengashning ayol deputati** Internet tarmog'ida o'zining **ishtirokida** aks etgan intim video tarqatilganidan so'ng obro'sizlantirilib, onlayn-bullinga duchor qilingan holatlar kuzatilgan.

FGM ishtirokchilari saylovchilar tomonidan keng tarqalgan stereotiplarni ham qayd etdi. Ularga ko'ra siyosatdagi ayollar go'yoki "erkak homiylar" tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va siyosat bilan kasbi tufayli emas, balki shaxsiy munosabatlari tufayli shug'ullanadi, bu esa, shubhasiz, ularning mustaqilligi va professional yutuqlarini obro'sizlantiradi. Ayol deputatlar oilasi va turmush o'rtog'i bo'lsa, nima uchun siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishi kerak, degan savollar ayol kishining roli uy yumushlari va oila haqida qayg'urishi kerak degan chuqur o'rnashib qolgan gender aqidani aks ettiradi va ularning ijtimoiy va siyosiy hayotga hissa qo'shish imkoniyatlarini e'tibordan chetda qoldiradi.

Bunday tendensiya butun dunyoga xos ekanini qayd etish lozim. Jumladan, "BMT-Ayollar" tuzilmasi ijrochi direktori Sima Baxus shunday degan edi: "Bu ma'lumotlar ayollar davlat va hukumat rahbarlari orasida ozchilikni tashkil etishidan dalolat beradi. Ularning soni hukumat rahbariyatida hali ham juda oz, vazirlar mahkamasining har to'rtinchi a'zosi ayol kishidir, bunda erkaklar iqtisodiyot, mudofaa va energetika kabi asosiy sohalarda hukmronlik qilishda davom etmoqda. To'liq demokratiya uning barcha jarayonlarida ayollarning teng ishtirok etishini talab qiladi. **Shunga qaramay, yetakchi ayollar, nomzodlar va saylovchilarga nisbatan uzoq davom etayotgan onlayn va oflayn zo'rvonlik hamda tahdidlar ularning ovozlari va bilimlari salohiyatiga putur yetkazadi**, ayollar esa iqtisodiy va ijtimoiy tiklanish uchun zarur bo'lgan o'zgarishlarni amalga oshirishga qodir. Dunyo bu adolatsizlikni davom ettira olmaydi. Bizga chinakam tenglikni olib keladigan model kerak" [35].

b) Deputatlik vazifalarini bajarish paytidagi bosim va ta'qiblar

Muhokamalar chog'ida sanab o'tilgan muammolarga qo'shimcha ravishda joylardagi ayol deputatlar duch kelayotgan yana bir muhim muammo yoritildi. Ishtirokchilar **ish joyida nafaqat rahbarlarga noqulay savollar bergani, balki o'zining prinsipial nuqtai nazari, korrupsiyaga qarshi turishi, deputatlik burchini bajarishda jur'atliliigi uchun ham ta'qiblarga uchragan holatlar haqida so'zlab berdi.**

Bunday hikoyalar siyosatdagi ayollar ko'pincha ikki tomonlama bosimga duch kelishini tasdiqlaydi: bir tomondan, ular gender stereotiplar va tazyiqni yengib o'tishi



kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan, alohida jasorat va qat'iyat talab qiladigan korrupsiya va adolatsizlik kabi tizimli muammolarga qarshi kurashishi kerak, bu esa ayol deputatlar jamiyat manfaatlariga xizmat qilgan va demokratiya va adolat rivojiga hissa qo'shgan holda o'z vakolatlarini xavfsiz hamda samarali amalga oshirishi uchun ularni himoya qilish va qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini yaratish muhimligidan darak beradi.

Shunga o'xshash tendensiyalar boshqa mamlakatlarda ham kuzatilayotganini qayd etish lozim. Parlamentlararo ittifoqning xotin-qizlarga nisbatan shilqimlik va zo'ravonlik to'g'risidagi tadqiqotiga ko'ra 39 mamlakatdagi parlamentning 55 nafar ayol a'zosining qariyb 82 foizi o'z faoliyati davomida shaxsan psixologik zo'ravonlikni boshidan o'tkazganini tan olgan. So'rovda qatnashgan xotin-qizlarning qariyb 44 foizi bunday lavozimni egallagan vaqtida ularga jismoniy tahdid qilishganini ham aytishgan^[36].

4. Parlamentning ayol a'zolari o'rtasida o'tkazilgan onlayn-so'rov natijalari bo'yicha xulosalar

Onlayn-so'rov natijasida O'zbekistondagi parlamentning ayol a'zolari duch kelayotgan to'siqlar va stereotiplar aniqlandi. Gender stereotiplar, madaniy munosabatlar, ijtimoiy xohish-istaklar va ayollarning yetakchilik xislatlariga nisbatan noxolis munosabat asosiy to'siqlar hisoblanadi.

Javoblar tahlili respondentlarning katta qismi erkaklarga qaraganda ayollar inqirozli vaziyatlarni hal qilishda malakasi kam va kamroq samara keltiradi degan fikrlarga duch kelishganini ko'rsatdi. Bu stereotiplar xotin-qizlarning ishonchini susaytiradi va lavozimi ko'tarilishida ularning imkoniyatlarini cheklaydi. Ayrim respondentlar gender stereotiplarga duch kelmagan bo'lsalar ham, ularning ko'pchiligi siyosiy muhitda bunday stereotiplar borligini qayd etgan.

Bundan tashqari, xotin-qizlarning jamiyatdagi roli borasidagi madaniy ko'rsatmalar ayollarning siyosatda ishtirok etishini sezilarli darajada cheklaydi. Jamiyatda o'rnashib qolgan bunday qarashlar ayollarning siyosiy faolligiga g'ov bo'ladigan qo'shimcha to'siqlarni keltirib chiqaradi. So'rov natijalari jamiyat ayol siyosatchilardan erkaklarga qaraganda ijtimoiy masalalar haqida ko'proq qayg'urishni kutayotganini ko'rsatdi. Bu umidlar ularning boshqa siyosiy yo'nalishlar va sohalar bilan shug'ullanish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Ayollar oilaga e'tibor qaratishi kerakligi haqidagi ko'p uchraydigan fikrlar ularning siyosiy faolligiga to'sqinlik qiladi. Bu ham siyosatda faoliyat yuritishni, ham uy yumushlarini bajarishni uddalashga intilayotgan ayollar uchun qo'shimcha qiyinchiliklar tug'diradi.

Ko'pchilik xotin-qizlar gender stereotiplar tufayli o'zining yetakchilik qobiliyatlari xususida noxolis munosabatga duch kelishdi. Bunday noxolis munosabat ularning yetakchi bo'lish rolini samarali bajarishi va martabasi yuksalishini qiyinlashtiradi.

Kasbi va saylovda qatnashish haqidagi savollarga berilgan javoblar tajribasi va ma'lumoti turlicha bo'lgan ayollar siyosiy hayotda ishtirok etmoqchi ekanini ko'rsatdi. Biroq ularning kasbiy yutuqlari va tajribasiga qaramay, ular hali ham yuqorida aytib o'tilgan to'siqlarga duch kelishmoqda.



Onlayn-so'rov natijasida parlamentning ayol a'zolari siyosat bilan shug'ullanuvchi ayollar sonini va ularning qarorlar qabul qilishdagi ta'sirini oshirishga ko'maklashadigan teng huquqli va adolatlirorq siyosiy makon yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni taklif qildi. Parlamentning ayol a'zolarining takliflari mazkur tadqiqot natijalari va tavsiyalarida o'z ifodasini topdi.



SIYOSIY HAYOTGA JALB QILINGAN AYOLLAR SONINI OSHIRISH BO‘YICHA ILG‘OR AMALIYOTLAR

Yuqorida ko‘rsatilgan to‘siqlarni bartaraf etish uchun jahonning barcha mamlakatlarida tegishli choralar ko‘rilmogda. Xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili xotin-qizlarning siyosiy hayotdagi ishtirokini kuchaytirishning eng yaxshi chora-tadbirlari quyidagilardan iborat ekanini ko‘rsatadi:

- ✦ **mutanosib saylov tizimi.** Partiyaning nomzodlar ro‘yxatini tuzishdagi strategiyasi mutanosib tizimning xotin-qizlarga qulayligining eng muhim sababidir. Mutanosib tizimda har bir partiya saylovchilarga nomzodlar ro‘yxatini taqdim etadi. Ushbu ro‘yxat uchun ovozlar sonini ko‘paytirish uchun partiyalar barcha saylovchilar guruhlar va asosiy ijtimoiy qatlamlarni ifodalovchi nomzodlarni unga kiritishga moyil. Har qanday yirik ijtimoiy guruhning, shu jumladan xotin-qizlarning chiqarib yuborilishi ular kamsitilayotganidan va chiqarib yuborilgan saylovchilar guruhi bu partiyaga shunchaki ovoz bermasligidan darak berishi mumkin.
- ✦ **gender kvotalar.** Kvotalar xalqaro miqyosda qo‘llab-quvvatlandi va imkoniyatlar tengligiga emas, balki natijalar tengligiga erishish uchun xotin-qizlarning siyosatdagi ishtiroki “tezda” oshishini ta‘minlashda o‘zining samarali ekanini isbotladi. Demokratiya va saylovlarga ko‘maklashish xalqaro instituti ma‘lumotlariga ko‘ra hozirgi vaqtda dunyo mamlakatlarining yarmida saylovda xotin-qizlar uchun u yoki bu kvota tizimi amal qiladi. Parlamentlararo ittifoq [ma‘lumotlari](#) ko‘rsatishicha, puxta o‘ylangan kvotalar siyosati xotin-qizlarning siyosiy hayotdagi ishtirokini kengaytirishda hal qiluvchi rol o‘ynadi va hozirgi vaqtda kvotalar siyosati 130 dan ortiq mamlakatda amal qilmoqda.
- ✦ Armanistonda **xotin-qizlar uchun belgilangan o‘rinlarni to‘ldirmaydigan siyosiy partiyalar uchun ma‘muriy jazo choralari** joriy etilib, gender kvotalarni ta‘minlash uchun qonunchilikka o‘zgartishlar bo‘yicha qonun loyihasi tayyorlandi. Bundan tashqari, qonunchilikka, **agar ayol kishi o‘z nomzodini olib tashlasa, ro‘yxatda turgan keyingi ayol nomzodini ko‘rsatishni talab qiluvchi qoidalar kiritilmoqda.**
- ✦ **xotin-qizlarning mahalliy darajadagi partiya faollari** va partiya ichidagi xotin-qizlar guruhlaridagi ishtirokining yuqori ulushi ham xotin-qizlarning siyosiy sohadagi rolini kuchaytirishga xizmat qilishi kerak. Jumladan, M. Kittilson 12 ta rivojlangan sanoat mamlakatidagi parlament partiyalarida xotin-qizlarning ishtirokini o‘rganib chiqib, muayyan tushuntirish kuchiga ega quyidagi to‘rtta partiya xususiyati to‘g‘risida xulosaga keldi: tashkiliy tuzilma, partiya mafkurasi, faol ayollar ulushi va nomzodlarni ko‘rsatishning o‘ziga xosligi^[33].
- ✦ **uzluksiz va tizimli o‘qitish, yetakchi xotin-qizlarni tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish.** Yetakchi xotin-qizlar mahalliy Kengashlar deputatlariga aylanayotganiga qaramay, o‘z oldilariga qo‘yilgan ijtimoiy vazifalarni bajarishda hali ham jiddiy muammolarga duch kelmoqdalar. Jamoa yetakchilarida “kommunikativ ko‘nikmalar” (ya‘ni yetakchilik, bahslashish va jamoatchilik oldida nutq so‘zlash ko‘nikmalari) yo‘qligi, shuningdek,



qonunchilik va uni qo'llashda nazariy bilimlar yetishmasligi asosiy to'siqlar hisoblanadi. Bundan tashqari, cheklangan kasbiy malaka, o'ziga ishonchsizlik va cheklangan ijtimoiy normalar kabi omillar, ayniqsa, qishloq joylarda ularning muvaffaqiyatga erishishiga yanada ko'proq to'sqinlik qilmoqda.

- ♥ Iroqdagi saylov davomida BMT Taraqqiyot dasturi (BMTTD) ijtimoiy tarmoqlar va boshqa platformalarni monitoring qilish orqali xotin-qizlarni xusumatli so'zlardan himoya qilish uchun bir qancha mexanizmlarni joriy etdi. Bu tashabbus butun saylov davrida xotin-qizlarni doimiy monitoring qilishni va himoya qilishni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli sa'y-harakatlarning bir qismi edi. BMTTD onlayn-kontentni kuzatish va tahlil qilish uchun ilg'or vositalar va texnologiyalardan foydalandi. Xotin-qizlarga nisbatan zararli kontent va xusumatli so'zlarni aniqlash uchun sun'iy intellektdan foydalanadigan [Gender Social Media Monitoring Tool](#) vositasini misol qilish mumkin. **Ushbu vosita 100 dan ortiq tillarga moslashgan va onlayn-gender zo'ravonlikka** hamda xotin-qizlar huquqlari va gender tenglikka rioya qilmaslikka qarshi kurashish uchun **siyosatchilar, fuqarolik jamiyati hamda** amaliyotchilarni yangi ma'lumotlar va tahliliy materiallar bilan ta'minlaydi. Bundan tashqari, BMTTDning [eMonitor+](#) platformasidan axborotning yaxlitligini targ'ib qilish va zararli kontentga ta'sir qilishni kamaytirish uchun foydalanildi. Sun'iy intellektga asoslangan ushbu tizim raqamli makon xaritasini shakllantiradi va xotin-qizlarga nisbatan yolg'on ma'lumot tarqatish, xusumatli so'zlar, tafovutlarga urg'u berish va onlayn-zo'ravonlik bilan bog'liq tendensiyalarni kuzatib boradi. U faktlarni birgalikda tekshirish uchun xavfsiz muhitni ta'minlaydi va xavfsizroq hamda yanada inklyuziv raqamli muhitlarni yaratish uchun dalillarga asoslangan strategiyalarni ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu tashabbuslar xotin-qizlarning siyosiy ishtirokini qo'llab-quvvatlash va ularni gender zo'ravonlik hamda xusumatli so'zlardan himoya qilish bo'yicha keng qamrovli strategiyaning bir qismi edi. Sa'y-harakatlar **ayol nomzodlarga nisbatan xusumatli so'zlar va zo'ravonlikni monitoring qilishni, xotin-qizlar uchun yetakchilik treninglarini taqdim etish va ular siyosiy hayotda ishtirok etishi uchun xavfsiz muhit yaratishni o'z ichiga oldi.**
- ♥ **ayollar parlament tarmoqlarini tashkil etish.** Ushbu tarmoqlar vaqtinchalik maxsus chora-tadbirlar yordamida saylanadigan lavozimlarga xotin-qizlar va erkaklar teng vakil bo'lishini talab qilish, siyosat masalalari bo'yicha axborot-ma'rifiy ishlarda qatnashish, partiyalararo hamkorlikka va qonunchilik ustuvorliklari yuzasidan kelishishga ko'maklashish hamda gender muammolarni hisobga oladigan qonunchilik islohotlarini rag'batlantirish orqali katta hissa qo'shadi^[34].
- ♥ **Foydalanish qulay va xilma-xil ijtimoiy tarmoqlar orqali siyosatdagi ayollar ijobiyroq qabul qilinishiga ko'maklashish.**
- ♥ **Xotin-qizlarga o'ziga xos siyosiy "lift" sifatida siyosiy faoliyat uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam beradigan fuqarolik jamiyati va ayollar nodavlat notijorat tashkilotlarini kuchaytirish.**



III. XULOSALAR VA TAVSIYALAR



2022-yilda Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish qo‘mitasida O‘zbekistonning oltinchi davriy ma‘ruzasini ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha quyidagilar tavsiya etildi:

Qo‘mita o‘zining 23-sonli (1997) xotin-qizlarning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi ishtiroki haqidagi umumiy tavsiyasiga havola qilib, ishtirokchi-davlatga quyidagilarni tavsiya qiladi:

- a) hukumatning barcha darajalarida, Oliy Majlis va mahalliy Kengashlarda, sud tizimida, ilmiy doiralarda va diplomatik xizmatda, xususan, yo‘l-yo‘riq beradigan darajada xotin-qizlar sonini ko‘paytirish uchun maqsadli chora-tadbirlar, shu jumladan, **kvotalar va kampaniyalarni maxsus moliyalashtirish** kabi vaqtinchalik maxsus chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida saylov qonunchiligiga o‘zgartishlar kiritish;
- b) **siyosat sohasida xotin-qizlarga nisbatan salbiy munosabat va kamsituvchi xulq-atvorga qarshi kurashish choralari ko‘rish**, shu jumladan maktablarda, Oliy Majlisda va keng jamoatchilik o‘rtasida axborot-ma‘rifiy kampaniyalar o‘tkazish;
- c) aholining hamma narsadan mahrum qilingan va e‘tiborsiz qoldirilgan guruhlariga mansub xotin-qizlarga alohida e‘tibor qaratgan holda xotin-qizlarni davlat va diplomatik xizmatga qabul qilishning imtiyozli tizimini joriy etish;
- d) siyosiy partiyalar zimmasiga o‘z saylov ro‘yxatlariga teng miqdorda ayol va erkak nomzodlarni navbatma-navbat joylashtirgan holda kiritishni yuklash (**“zanjirsimon tugma” tizimi**);
- e) siyosiy kampaniyalar o‘tkazish, rahbarlik qilish va muzokaralar olib borish kabi sohalarda **ayol siyosatchilar va ayol nomzodlar malakasi oshirilishini** ta‘minlash, shuningdek, ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda xotin-qizlarning huquqlarini to‘liq ro‘yobga chiqarish va ishtirokchi davlatda siyosiy barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishga erishishning zarur sharti sifatida xotin-qizlarning erkaklar bilan har tomonlama, mustaqil va demokratik ishtiroki muhimligi to‘g‘risida siyosatchilar, jurnalistlar, diniy yetakchilar, jamoat arboblari va keng jamoatchilik xabardorligini oshirish;
- f) **xususiy sektorda rahbarlik lavozimlarini egallab turgan va yetakchilik qilayotgan ayollar malakasini oshirish va o‘qitish** hamda xususiy sektor tashkilotlarini rahbarlik lavozimlarida ayollar sonini oshirish muhimligidan xabardor qilish.^[37]

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda yuqoridagi tavsiyalarni amalga oshirish choralari ko‘rildi. Ayrim tavsiyalar, jumladan, xotin-qizlarni siyosiy hayotda faol ishtirok etishga o‘qitish bo‘yicha tavsiyalar hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

Shu bilan birga, FGM va treninglardagi ish yakunlari, shuningdek, umumjahon tendensiyalari, eng yaxshi amaliyotlar va tadqiqot ishtirokchilarining fikrlarini



umumlashtirishni hisobga olgan holda aniqroq tavsiyalar ishlab chiqildi. Xususan, qarorlar qabul qilish jarayonida xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish va gender mutanosiblikni ta'minlash uchun quyidagi chora-tadbirlarni ko'rish maqsadga muvofiq:

Qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti sohasida

1. XMTning "Mehnat sohasida zo'ravonlik va ta'qibga barham berish to'g'risida"gi 190-sonli Konvensiyasini ratifikatsiya qilish.
2. Siyosiy sohada jinsiga qarab kamsitishga qarshi kurashishga doir qonunchilik choralarini kuchaytirish, shu jumladan, gender kamsitish amaliyoti uchun jazolash.
3. Xotin-qizlarning nomzodlikdan voz kechishi bilan bog'liq muammoni hal qilish uchun qonunchilikka, agar ayol o'z nomzodini olib tashlasa, ro'yxatda navbatdagi ayolning nomzodi ko'rsatilishini talab qiladigan qoidalarni kiritish. Bunday chora gender mutanosiblikni saqlab qolishga yordam beradi va kvota tizimining samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi.
4. Siyosatda zo'ravonlik va shilqimlikning barcha shakllarining, ayniqsa siyosatchi ayollarga nisbatan zo'ravonlikning eng keng tarqalgan shakllarining oldini olish bo'yicha profilaktika ishlarini olib borish.

Institutsional mexanizmlarni/asoslarni mustahkamlash, shart-sharoit yaratish va zo'ravonlikka qarshi kurashish sohasida

1. Ayol va erkaklarga siyosiy faoliyatni oilaviy majburiyatlar bilan birga olib borishi uchun deputatlarga qulay ish sharoitlarini joriy etish va bolani parvarishlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini ta'minlash.
2. Tazyiq, shilqimlik yoki ta'qibga uchragan ayol deputatlar uchun aniq, maxfiy va qulay shikoyat berish mexanizmini ishlab chiqish va joriy etish.
3. Ayol deputatlar mansabdor shaxslar bilan kelishmovchiliklar yuzaga kelganda o'z huquq va manfaatlarini himoya qila olishi uchun ular malakali yuridik yordam olishini ta'minlash.
4. Bir-birini o'zaro qo'llab-quvvatlash orqali ayol deputatlarning barqarorligini mustahkamlash, partiya yo'li va chegarasidan qat'iy nazar ayol deputatlar o'rtasida hamjihatlikni mustahkamlash, parlamentda xotin-qizlar sonini oshirish va odob-axloq kodekslarini qabul qilish.
5. Jamiyat va oilada erkak va ayol roli bilan bog'liq to'siqlar hamda stereotiplarni yengib o'tishni o'rgatish.

Deputatlikka ayol nomzodlarni himoya qilish mexanizmlarini joriy etish sohasida:

1. Xusumatli so'zlar va zararli kontentni aniqlash hamda ularga qarshi kurashish uchun ijtimoiy mediani monitoring qilish mexanizmlarini joriy etish. Zararli kontentni aniqlash uchun sun'iy intellektdan foydalanadigan va 100 dan ortiq tillarga moslashgan [Gender Social Media Monitoring Tool](#) kabi vositalardan foydalanish.
2. Yolg'on ma'lumot tarqatish, xusumatli so'z, tafovutlarga urg'u berish va ayollarga nisbatan onlayn-zo'ravonlik bilan bog'liq tendensiyalarni kuzatish uchun [eMonitor+](#) kabi platformalarni

joriy qilish. Sun'iy intellektga asoslangan ushbu tizim raqamli makonlarni xaritalashda va faktlarni birgalikda tekshirish uchun xavfsiz muhitni ta'minlashda yordam beradi.

Siyosiy partiyalarda xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish sohasida:

1. Siyosiy partiyalar gender tenglik tamoyillarini partiya ta'xis hujjatlariga kiritib, partiya nizomi, siyosati va tartib-taomillari orqali gender tenglik tamoyillarini institutsionallashtirishi kerak. Bundan tashqari, gender tenglik maqsadlariga erishish uchun o'lchanadigan maqsadlar va hisobdorlik mexanizmlarini belgilash lozim.
2. Xotin-qizlarning partiya rahbarlik va vakillik organlaridagi ishtiroki uchun kvotalarni belgilash. Bu xotin-qizlar qaror qabul qilishning barcha darajalarida teng ishtirok etishini ta'minlashga yordam beradi.
3. Ayollar nomzodlarini ko'rsatishda gender kvotasi talablariga rioya qilmagan siyosiy partiyalar ma'muriy javobgarlikka tortilishi kerak. Ushbu majburlash mexanizmi partiyalarning qoidalarga rioya qilishini ta'minlash va ularning nomzodlar ro'yxatida gender tenglikni targ'ib qilishga mo'ljallangan.
4. Gender masalalariga yo'naltirilgan ayollar qanotlari, qo'mitalari yoki kengashlari ramziy rollarni emas, balki chinakam ta'sirga va qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lishini ta'minlash.
5. Siyosiy partiyalarning ayol nomzodlarini maqsadli moliyalashtirish va o'qitilishini qo'llab-quvvatlash.
6. Xotin-qizlar huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga erkaklarni jalb qilish va partiyaning gender tenglik siyosatini ishlab chiqishda erkak siyosatchilarning ishtirokini ta'minlash tashabbuslarini amalga oshirish.
7. Xotin-qizlarni partiyaga jalb qilish, ularni tashkilot ichida qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, partiya saflarida saqlab qolish uchun gender masalasi bilan bog'liq qoidalar va tartib-taomillarni ishlab chiqish.
8. Gender tenglikni ta'minlash sohasida fuqarolik jamiyati institutlari bilan aloqalarni mustahkamlash va bu hamkorlikdan partiyalarning hisobdorligini oshirishda foydalanish.
9. Partiyalar faoliyatida, tadbirlarda va ommaviy axborot vositalarida yoritishda tenglikni ta'minlash orqali gender mutanosib vakillikni rag'batlantirish.

Yetakchi ayollarni tayyorlash sohasida:

1. Potensial siyosatchi ayollar va amaldagi deputatlar uchun siyosiy faoliyat, jamoatchilik oldida nutq so'zlash sohasida zarur ko'nikma va bilimlarni shakllantirishga, nizolarni hal etishga, yetakchilik, kampaniyalarni boshqarish va saylovchilar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan muntazam o'quv dasturlari va seminarlar tashkil etish. Jumladan, asosiy ish joyidan ajratilmagan holda o'qitish uchun onlayn-kurslar tashkil etish, mamlakat siyosiy hayotida ishtirok etish masalalari bo'yicha o'quv adabiyotlarini nashr etish.



2. Tajribaliroq deputatlar o'z bilim va tajribalarini siyosatda endi ish boshlagan yosh ayollar bilan o'rtoqlashadigan mentorlik dasturlarini yaratish. Bunday hamkorlik tajribasi kam shaxslarga siyosiy sohada o'zini ishonchliroq his qilishga va ularning kasbiy o'sishiga yordam beradi.
3. Ta'lim maqsadlarida [Equal Future](#) (Teng kelajak) platformasi imkoniyatlaridan foydalanish va hamkorlikni yo'lga qo'yish. O'zbekistonlik yetakchi ayollar ko'proq foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi uchun veb-saytning o'zbekcha yoki ruscha versiyalarini (sahifalarini) yaratish.
4. Xotin-qizlarning o'z yetakchilik qobiliyatlariga ishonchini mustahkamlashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish va siyosatda yetakchilik qilish yo'lidagi ichki va tashqi to'siqlarni yengib o'tishda yordam berish.
5. Deputat ayollarning huquqlari va xavfsizligini himoya qilish masalalari, shu jumladan tazyiq hamda ta'qiblarga qarshi kurashish usullari bo'yicha o'qitish dasturlari va treninglarni tashkil etish.
6. Tajribani, to'siqlarni yengib o'tish strategiyalarini almashish va siyosatchi ayollar o'rtasida bir-birini qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish uchun siyosatdagi xotin-qizlar uchun forumlar, konferensiyalar va qo'llab-quvvatlash tarmoqlarini tashkil etish.

Ta'lim tashabbuslari sohasida:

1. Gender tenglik va siyosatda gender stereotiplarni bartaraf etishning muhimligini muhokama qilish uchun erkak siyosatchilar, jamoat arboblari va OAV vakillari ishtirokida ma'rifiy dasturlar va muhokamalar tashkil etish.
2. Ta'lim tizimida – o'quv materiallarida, o'quv dasturlarida va o'zaro munosabatlarda namoyon bo'ladigan jamiyatda erkaklar va xotin-qizlarning rollari haqidagi stereotiplarga barham berish ustida ishlash. Bundan tashqari, bu jarayonga erkaklarni faol ravishda qo'shib, ijtimoiy me'yorlarni o'zgartirish.
3. Yoshlikdan hurmat bilan va teng huquqli munosabatda bo'lishni shakllantirish uchun gender tenglik va xotin-qizlarning siyosatdagi ishtirokining muhimligi mavzularini maktab va oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlariga kiritish.
4. Siyosatdagi xotin-qizlar uchun shilqimlikka qarshi kurashish bo'yicha treninglar va o'zini himoya qilish bo'yicha kurslarni doimiy va majburiy ravishda o'tkazish.

Ayol siyosatchilar haqida jamoatchilik xabardorligini oshirish va fikrini o'zgartirish bo'yicha kampaniyalar olib borish sohasida:

1. Jamoatchilikning siyosatda gender tenglikning ahamiyati va gender stereotiplarni yengib o'tish haqida xabardorligini oshirish bo'yicha kampaniyalar o'tkazish, bu jarayonga faol erkaklar, an'anaviy rahbarlar va hamjamiyatlarni jalb qilish, shuningdek, xotin-qizlarning siyosatda ishtiroki uchun yanada qulay muhit yaratish, shu jumladan siyosatda xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish va unga qarshi kurashish, ya'ni:
 - ✦ xotin-qizlar mavqei va martabasi ko'tarilishida oila/oila a'zolarining qo'llab-quvvatlashi muhimligi haqida axborot tarqatish;

- ♥ oilaviy majburiyatlarni bajaradigan erkaklar modellarini yaratish (XMTning 156-sonli Konvensiyasining 6-moddasi).
- 2. Siyosatdagi ayollarning jamoatchilik tomonidan qabul qilinishini o'zgartirish va ular haqida ijobiy fikrni shakllantirish uchun OAV va ommaviy tadbirlar orqali parlamentda/ mahalliy Kengashlarda xotin-qizlarning ishtirokini kuchaytirish.
- 3. Xotin-qizlar va erkaklarning jamiyat va siyosatdagi o'rni haqidagi stereotip g'oyalarga barham berish uchun turli media platformalardan foydalangan holda jamoatchilik orasida keng ko'lamli kampaniya olib borish.
- 4. Xotin-qizlarning siyosatdagi muvaffaqiyatli hikoyalarini targ'ib qilish, ularning yutuqlari va jamiyatga qo'shgan hissalarini namoyish etish uchun ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish.
- 5. O'z faoliyatida gender bilan bog'liq jurnalistika standartlarini joriy etish, ayol siyosatchilarni kamsitish va haqorat qilishning, gender bilan bog'liq noxolis munosabat va stereotiplardan foydalanishning, xotin-qizlarni siyosatdan chetlashtirishni asoslashning, o'z nashrlari va materiallarida yetakchi ayollarga qarshi zo'raonlikni targ'ib qilishning oldini olish.
- 6. Siyosiy va ijtimoiy hayotda xotin-qizlarning erkaklar bilan teng va to'liq, erkin va demokratik ishtirok etishi demokratik taraqqiyotning sharti ekanini chuqurroq tushunishni ta'minlash uchun siyosiy hayotda va qarorlar qabul qilishda xotin-qizlar ishtirokining ahamiyati to'g'risida siyosatchilar, jamoatchilik fikri yetakchilari, jurnalistlar va keng jamoatchilik orasida xabardorlikni oshirish bo'yicha kampaniyalar olib borish.





Fokus-guruh muhokamalari uchun savollar

T/r	Savollar	Qo'shimcha savollar
1	<p>Iltilmos, siyosatdagi rolingiz va faoliyat sohangiz haqida so'zlab bering. Kengash/partiya/palatangizda xotin-qizlar va erkaklar nisbati qanday?</p>	<ul style="list-style-type: none"> Sizningcha, kengash/partiya/palatadagi xotin-qizlar va erkaklar nisbatiga qanday omillar ta'sir qiladi? Kengash/partiya/palatangiz gender muvozanatni ta'minlash yoki xotin-qizlarni siyosatda qo'llab-quvvatlash uchun qanday choralar ko'rmoqda? Sizningcha, xotin-qizlar faolligini oshirish uchun kengash/partiya/palatangizning siyosiy tizimi yoki madaniyatida qanday o'zgarishlarni amalga oshirish kerak? Kengash/partiya/palatangizda rahbar lavozimlarda ayollar bormi va bu siyosiy jarayonlar hamda qarorlar qabul qilinishiga qanday ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaysiz? Kengashingiz/partiyangiz/palatangizdagi xotin-qizlar tomonidan ishlab chiqilgan yoki ilgari surilayotgan katta ta'sir ko'rsatgan muayyan siyosat yoki tashabbuslarni misol qilib keltira olasizmi?
2	<p>Sizningcha, nima uchun erkaklar xotin-qizlardan ko'ra ko'proq siyosiy faoliyat bilan shug'ullanadi?</p>	<ul style="list-style-type: none"> Sizningcha, qanday muayyan omillar siyosiy faoliyatda erkaklar ko'pchilikni tashkil etishiga ta'sir qiladi? Xotin-qizlarning ushbu siyosat sohalarida ishtirok etishiga to'siqlik qiladigan madaniy yoki ijtimoiy to'siqlar bor deb o'ylaysizmi?
3	<p>Siyosatga qanday kirib keldingiz? Jinsingiz tufayli bu yo'lda biror-bir to'siqqa duch keldingizmi?</p>	<ul style="list-style-type: none"> Siyosatda rahbarlik lavozimlarini egallashni xohlagan xotin-qizlar uchun qanday to'siqlar bor deb o'ylaysiz? Siyosat yo'lingizda jinsingiz bilan bog'liq to'siqlarga duch kelganingizni ta'riflab bera olasizmi? Bunday to'siqlarni qanday yengib o'tdingiz va qanday strategiyalar eng samarali bo'ldi? Oilaviy holatingiz yoki farzandlaringizga/ oilangizning yoshi katta a'zolariga g'amxo'rlik qilish vazifasi siyosat bilan shug'ullanishingizga ta'sir ko'rsatdimi? Atrofingizdagilar (oila a'zolaringiz, do'stlaringiz, hamkasblaringiz) siyosat bilan shug'ullanishga qaror qilganingizda qanday munosabatda bo'ldi?
4	<p>Sizningcha, siyosatda ishtirok etayotganda teng imkoniyatlarni ta'minlash uchun uy ishlarida yordam berishda erkaklar, ayniqsa, siyosatchi ayollarning turmush o'rtoqlari qanday rolni bajarishi kerak?</p>	<ul style="list-style-type: none"> Oilaviy majburiyatlar muayyan siyosiy faoliyat yoki kampaniyada ishtirok etish qaroringizga bevosita ta'sir ko'rsatgan aniq misollar bilan o'rtoqlasha olasizmi? Oilaviy majburiyatlar siyosatda martabangiz yuksalishi mumkinligidan voz kechishga ta'sir ko'rsatganmi? Oilaviy majburiyatlar xotin-qizlarning siyosiy faoliyati yo'lida to'siq sifatida qaralmasligi uchun ijtimoiy normalar va tushunchalarni qanday o'zgartirish kerak?
5	<p>Sizningcha, siyosatdagi xotin-qizlar xususida qanday stereotiplar mavjud?</p>	<ul style="list-style-type: none"> Siyosatdagi xotin-qizlar xususida shaxsan o'z faoliyatingizda qanday muayyan stereotiplarga duch kelgansiz? Sizningcha, bu stereotiplar xotin-qizlarning siyosatda yetakchilik qilish va nufuzli lavozimlarni egallash imkoniyatlariga qanday ta'sir o'tkazadi? Sizningcha, stereotiplar fuqarolarning kimni saylamoqchi ekaniga qanday ta'sir ko'rsatadi?

T/r	Savollar	Qo'shimcha savollar
6	Sizning ma'lumotingiz siyosat bilan shug'ullanish haqidagi qaroringizga qanday ta'sir qilganini va u siyosiy faoliyatingizda sizni qanday qo'llab-quvvatlaganini ta'riflab bera olasizmi?	<ul style="list-style-type: none"> Sizningcha, ma'lumotingizda siyosatdagi ishtirokingizni murakkablashtirgan xatolar yoki kamchiliklar bo'lganmi? Agar bo'lgan bo'lsa, bu aynan qanday xato va kamchiliklar edi? Faoliyatingizda muayyan bilim yoki ko'nikmalarning yo'qligi siyosatda muvaffaqiyatga erishishingizga to'sqinlik qilgan vaziyatlarga duch kelganmisiz?
7	Mamlakatingizda kengash/partya/palata ichida va partiya rahbariyati orasida xotin-qizlarga nisbatan ijtimoiy yoki madaniy munosabat qanday?	<ul style="list-style-type: none"> Mamlakatda: mamlakatdagi ayollar yetakchiligi haqidagi tasavvurlar, mansabparast ayollar va hokimiyatdagi ayollar haqidagi salbiy stereotiplar va hokazolar. Kengash/partya/palatada: xotin-qizlarning partiyadagi ishtiroki yoki yetakchiligiga nisbatan kamsituvchan munosabat, erkaklar va xotin-qizlar o'rtasida teng yetakchilik siyosiy partiya uchun muhim yoki muhim emasligi haqidagi qarashlar. Partiya yetakchilari: partiya yetakchilarining xotin-qizlarning partiyadagi o'rni va ayollar teng ishtirok etishi va yetakchilik qilishi kerakligi yoki kerak emasligi haqidagi fikrlari. Bu munosabatlar harakatlarda aks etadimi yoki faqat so'zlardami?
8	Qanday xislatlar yoki xususiyatlar ko'pincha ayol siyosatchilarga xos deb ta'riflanadi?	<ul style="list-style-type: none"> Muvaffaqiyatli siyosatchi qanday xislatlarga ega bo'lishi kerak deb o'ylaysiz va bunday xislatlar ayollar va erkaklar uchun bir xilmi? Ayol siyosatchilarning ayrim xislatlari yoki xususiyatlari siyosiy maydonda ularga qarshi qo'llanilgan holatlarga duch kelganmisiz? Siyosiy yetakchilikdan kutilayotgan istaklarga gender ta'sir qiladimi? Masalan, ayollardan ko'proq empatiya yoki kommunikabellik kutiladimi?
9	Xotin-qizlar va erkaklarning siyosiy yetakchi bo'lish qobiliyati haqida qanday fikrdasiz? Erkaklar va xotin-qizlar barcha sohalarida bir xil darajada siyosiy yetakchi bo'lishga qodir deb o'ylaysizmi?	<ul style="list-style-type: none"> Rollar: xotin-qizlarning turli yetakchi, tashkilot, qo'mita, siyosiy partiya, kengash, parlament va hokazolar yetakchilari bo'lishga qodirligi haqida so'zlab bering. Mavzuga doir sohalar: ayollar faqat salomatlik, bolaga qarash, ayollar/oila/sport kabi mavzularda rahbarlik qilishi kerakmi? Xotin-qizlar yoki erkaklar uchun taqiqlangan mavzular bormi?
10	Siz biron-bir ayol deputat siyosiy faoliyati davomida zo'ravonlik yoki zo'ravonlik tahdidiga uchraganiga duch kelganmisiz yoki guvohi bo'lganmisiz? Bu jismoniy zo'ravonlik, og'zaki haqoratlar, shahvoniy shilqimlik, psixologik hujumlar yoki tahdid qilish va majburlashni o'z ichiga oladi.	<ul style="list-style-type: none"> Jismoniy zo'ravonlik Jinsiy zo'ravonlik Psixologik zo'ravonlik: Haqoratlash Tuhmat Shaxsiyatga o'tish OAV tomonidan ta'qib Ayollarning siyosiy ishtirokini axloqsiz xatti-harakatlarga tenglashtiradigan haqoratlar Xusumat gaplar Tahdid qilish yoki majburlash Tahdidlar Yolg'on ayblovlar Qo'rqitish Shantaj qilish <p>Agar ishtirokchilardan birortasi "yo'q" deb javob bergan bo'lsa, shunday deb so'rang: "Siyosiy partiyangiz/kengash/palatada zo'ravonlik ko'rsatilgan yoki zo'ravonlik bilan tahdid solingan yoki solinayotgan bo'lishi mumkin, deb o'ylaysizmi, hatto buni o'zingiz ko'rmagan bo'lsangiz ham?"</p>



T/r	Savollar	Qo‘shimcha savollar
11	Siz ta’riflab bergan voqealar jabrlanuvchiga, ularning partiyadagi faoliyatiga va/ yoki siyosiy hayotda ishtirok etishga bo‘lgan qiziqishiga ta’sir ko‘rsatdimi? Agar ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, qanday ta’sir ko‘rsatdi?	<ul style="list-style-type: none"> • Kengash/partiya ichidagi ishlarga ta’siri • Siyosiy yetakchilik va obro‘-e’tiborga ta’siri • Siyosiy ambitsiyalarga, ishtirok etishga va kengroq ma’noda fikrni ifodalashga ta’siri • Boshqa xotin-qizlarga ta’siri (masalan, boshqa ayollarni siyosatda ishtirok etishdan qaytarish)
12	Siyosatdagi ayollar haqidagi jamoatchilik fikri ularning martabasi ko‘tarilishiga ta’sir qiladi deb o‘ylaysizmi?	<ul style="list-style-type: none"> • O‘z tajribangiz yoki kuzatishlaringiz davomida jamoatchilik fikri ayolning siyosatdagi faoliyatiga ta’sir ko‘rsatganiga misollar keltira olasizmi? • Sizningcha, siyosatdagi xotin-qizlar va erkaklar xususidagi ijobiy salbiy jamoatchilik fikri qanday farq qiladi?
13	Xotin-qizlarning siyosatdagi faolligini oshirish uchun jamoatchilik fikri va madaniyatida qanday o‘zgarishlar bo‘lishi kerak?	<ul style="list-style-type: none"> • Siyosatdagi xotin-qizlar haqidagi jamoatchilik qarashlari va madaniy normalarini o‘zgartirish uchun ta’lim yo‘nalishida qanday choralar ko‘rish mumkin? • Siyosatdagi xotin-qizlar haqidagi jamoatchilik fikri o‘zgarishini qo‘llab-quvvatlash uchun erkaklar yoki erkak siyosatchilar qanday choralar ko‘rishi mumkin? • Sizningcha, xotin-qizlarning siyosatdagi ishtirokini cheklaydigan gender stereotiplarga qarshi kurashishning qanday eng samarali usullari bor? • Xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi roli haqidagi tasavvurning o‘zgarishi ularning siyosatdagi ishtirokiga qanday ta’sir ko‘rsatishi mumkin? • Jamoatchilik fikrini o‘zgartirish va xotin-qizlarning siyosatdagi ishtirokini oshirishda gender ta’limning o‘rni qanday?
14	Hamkasblarining qo‘llab-quvvatlashi, mentorlik va tarmoqdagi hamkorlik siyosatdagi xotin-qizlar uchun qanday rol o‘ynaydi?	<ul style="list-style-type: none"> • Qo‘llab-quvvatlashning qanday shakllari yoki resurslar (masalan, o‘quv dasturlari, axborot bilan qo‘llab-quvvatlash) siyosiy faoliyatga intilayotgan xotin-qizlar uchun eng muhim hisoblanadi? • Qanday aniq chora-tadbirlar siyosatdagi xotin-qizlar uchun ko‘proq inklyuziv va qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishga yordam berishi mumkin? • Siyosatdagi xotin-qizlar oldidagi to‘siqlarni bartaraf etish uchun qonunchilik yoki siyosiy amaliyotda qanday o‘zgarishlar zarur deb hisoblaysiz?



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- [1] Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/declhr.shtml
- [2] Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya. Hujjat matni: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/women_politrights.shtml
- [3] Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt. Hujjat matni: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pactpol.shtml
- [4] Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiya. Hujjat matni: https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/cedaw.shtml
- [5] Pekin deklarasiyasi va Harakatlar platformasi. Hujjat matni: <https://www.un.org/womenwatch/daw/beijing/pdf/BDPfA%20R.pdf>
- [6] Hujjat matni: <https://www.un.org/sustainabledevelopment/ru/gender-equality/>
- [7] Mirziyoev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2018. – 39-bet.
- [8] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 20-yalpi majlisidagi nutqi, 2019-yil 22-iyul. [El. resurs]. URL: <http://uza.uz/ru/documents/vystuffjplenie-prezidenta-respubliki-uzbekistan-shavkata-mirziye-22-06-2019> (Murojaat sanasi: 2019-yil 22-iyun)
- [9] O‘zbekistonda ayol deputatlar soni 40 foizga ko‘payadi. <https://daryo.uz/ru/2023/10/31/kolicestvo-deputatov-zensin-v-uzbekistane-uvelicitsa-do-40>
- [10] O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Hujjat matni: <https://lex.uz/docs/6445147>
- [11] “O‘zbekiston Respublikasining referendumini to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni <https://lex.uz/docs/82205>
- [12] Hujjat matni: <https://lex.uz/ru/docs/5466673#5467842>
- [13] Hujjat matni: <https://lex.uz/ru/docs/4386846?ONDATE2=08.05.2023&action=compare>
- [14] Mussarat Jabeen, Sajid Mahmood Awan Quaid-e-Azam. Gender Quotas as an Instrument for Women’s Empowerment in Legislatures // FWU Journal of Social Sciences. – Summer 2017, Vol.11. – No.1. – P.132.
- [15] Lenita Freidenvall. Women’s Political Representation and Gender Quotas – the Swedish Case. – 2003. – P.9.
- [16] Bakaeva F. Gendernaya ekspertiza nacionalnogo zakonodatelstva: metodicheskoe posobie / Bakaeva F.X., Kvitkov Ya.M. – Tashkent:Baktria press, 2018. – C.100.



- [17] Shvedova N. A. Bill o pravax jenshin: tridsatiletniy yubiley // Jenshina v rossiyskom obshestve. – 2009. – № 3. – S.68.
- [18] Stepanova N. Opit ispolzovaniya gendernix kvot v stranax Zapadnoy Yevropi // Obshestvennie nauki i sovremennost, 1999. – № 4. – C.187.
- [19] Hujjat matni: <https://lex.uz/ru/docs/5466673#5467842>
- [20] Prava cheloveka i spravedlivoe sudoproizvodstvo. Prakticheskoe posobie. T. Baktria Press, 2012 – C. 204.
- [21] BMTning Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish qo‘mitasining 23-sonli umumiy tavsiyasi (1997-yil).
- [22] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/docs/6704829>
- [23] O‘zbekiston Respublikasida 2030–yilgacha gender tengligikka erishish strategiyasi <https://lex.uz/ru/docs/5466725>
- [24] “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni <https://lex.uz/docs/6697625>
- [25] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni <https://lex.uz/ru/docs/6600404>
- [27] <https://eca.unwomen.org/ru/stories/novosti/2023/04/zhenschiny-u-vlasti-v-2023-godu-novye-dannye-pokazyvayut-progress-no-bolshie-razryvy-v-dannykh-po-regionam>
- [28] <https://eca.unwomen.org/ru/stories/novosti/2023/04/zhenschiny-u-vlasti-v-2023-godu-novye-dannye-pokazyvayut-progress-no-bolshie-razryvy-v-dannykh-po-regionam>
- [29] Women in parliament in 2023. The year in review. <https://www.ipu.org/resources/publications/reports/2024-03/women-in-parliament-2023>
- [30] 105 Lawless and Fox, Girls just wanna not run; https://www.american.edu/spa/wpi/upload/girls-just-wanna-not-run_policy-report.pdf
- [31] On gender stereotypes and employment asymmetries; <https://www.economics.sociology.eu/files/11.pdf>
- [32] Hujjat matni: <http://hrlibrary.umn.edu/russian/gencomm/Rgeneral23.html>
- [33] Kittilson, M.C. Women’s Representation in Parliament: The Role of Political Parties // Party Politics, 1999, Vol. 5, No. 1, pp. 79–98.



[34] Yevropa iqtisodiy komissiyasi mintaqasida qarorlar qabul qilish jarayonida xotin-qizlarning yetakchiligi. BMTTD tomonidan tayyorlangan rasmiy ma'lumot. https://unece.org/fileadmin/DAM/RCM_Website/ECE_AC.28_2019_12-r.pdf

[35] <https://eca.unwomen.org/ru/stories/novosti/2023/04/zhenschiny-u-vlasti-v-2023-godu-novye-dannye-pokazyvayut-progress-no-bolshie-razryvy-v-dannykh-po-regionam>

[36] <https://parliament.gov.uz/ru/articles/951>

[37] https://tbinternet.ohchr.org/_layouts/15/treatybodyexternal/Download.aspx?symbolno=CEDAW%2FC%2FUZB%2FCO%2F6&Lang=ru



